

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH
INSTITUTI**

IJTIMOIIY FANLAR KAFEDRASI

“KREATIV FIKRLASH” FANIDAN

O‘QUV-USLUBIY MAJMUUA

NAMANGAN-2023

Fanning o'quv uslubiy majmuasi Namangan muhandislik-qurilish institutining 2023 yil 30 avgustdagi tasdiqlangan "Kreativ fikrlash" fani o'quv dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchi:

B.B.Isxakov – Namangan muhandislik-qurilish instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
S.Karimbayeva – Namangan muhandislik-qurilish instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti

Taqrizchilar:

M.Ismoilov - NamMQI "Ijtimoiy fanlar" kafedrası professori, f.f.d.
T.Ismoilov - NamDU "Ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti, f.f.d.

Ushbu o'quv-uslubiy majmua "Ijtimoiy fanlar" kafedrasining 2023 yil 26 avgustda 1-sonli yig'ilishida ma'qullangan.

Kafedra mudiri:




dots. B.Akbarov

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Namangan muhandislik-qurilish instituti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan. 2023 yil 30-avgustdagi ____-sonli majlis bayoni. (____ - son bilan ro'yhatga olingan).

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:



T.Jo'rayev



1-MAVZU. “KREATIV FIKRLASH” FANIGA KIRISH

REJA:

1. Kreativlik tushunchasi haqida antik davr faylasuflarining qarashlari.
2. Kreativlik va kreativlik fikrlashning mohiyati
3. Kreativlikning rivojlanish bosqichi

Insonni insoniyligini ifodalovchi eng muhim ijtimoiy fazilatlardan biri hisoblangan “kreativ qobiliyat” va “kreativ tafakkur” tushunchalari insonni yuksak ijodiy imkon sohibi ekanligiga dalolat qilishi bilan birga, ayni paytda shaxs mustaqilligini ifodalovchi eng muhim belgilardan biridir. Kreativ tafakkur tushunchasi tarixiy manbalarda turli xil ma’no va qarashlarni anglatib kelgan. Bu tushuncha ikki xil xususiyatga ega bo‘lgan so‘zlar birikmasidan iborat bo‘lib, o‘zida sifatiylik va miqdoriylikni mujassam etadi. “Kreativlik” uning sifatini bildirsa, “tafakkur” esa fundamental xususiyatini aks ettiradi. Shuningdek, kreativlik keng ma’noda kishining voqea va hodisalarning o‘ziga xos mohiyatini ijodiy anglashga asoslangan faoliyat hisoblanadi, kreativ tafakkur esa insonning ijodiy tafakkurini nazarda tutadi. Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi ta’riflarda ham ikki tushuncha bir-biridan sifat va miqdor jihatidan farqlanadi. Qadimda yunon faylasuflari bu masala yuzasidan turli xil qarashlarni o‘rtaga tashlaganlar.

Qadimda yunon faylasufi Suqrot kreativlikni ijodiy tafakkurning o‘rtacha holati inson amaliy faoliyatini muvofiqlashtiruvchi ichki qoidalarini yaratish borasidagi qobiliyati deb tushunadi. Suqrotning shogirdi Aflotunning fikriga ko‘ra, kreativlik insonning turli tushunchalar yaratishga qaratilgan mushohada yuritish qobiliyati bo‘lsa, kreativ tafakkur esa, uni kundalik amaliy faoliyatga tadbiq etish uchun zarur bo‘ladi. Umuman olganda, antik falsafiy tafakkur kreativlik mazmuniga ikki xil mavqedan turib yondoshadilar:

- 1) kreativlikni aynan kosmoontologik tushuncha ekanligi;
- 2) individual xususiyatga ega bo‘lgan biososial tushuncha sifatida e’tirof etadilar.

Kosmoontologik mazmunga ega bo‘lgan “kreativlik” asosan, Platon va Arastu asarlarida olamiy yohud dunyoviy ijodiy aql mahsuli ko‘rinishida sinkritek holda uchraydi, lekin bundan yunon mutafakkirlari kreativlikning individual xususiyatlarini inkor etadi degan fikr kelib chiqmaydi. Biososial xususiyatga ega bo‘lgan kreativlik tarafdorlari asosan kreativ tafakkurni shakllanishini avtomatik

jarayon sifatida tabiat va jamiyat xodisalarining inson bioorganizmidagi in'ikosi deb tushunadilar.

Qadimgi Yunon falsafasida kreativlik ijod manbai emas, balki ijodning o'zi, ya'ni ijodiy fenomendir. To'g'ri Arastu (er. avv. 384-322 y.) o'z qarashlarida "kreativlik" va "kreativ tafakkur" tushunchalarini ishlatib, bu ikki terminni bir-biridan ajratishga ham harakat qilgan. Uning fikriga ko'ra, "kreativlik"- ijodiy imkoniyatdan ijodiy voqelikka o'tish jarayoni bo'lsa, "kreativ tafakkur" mazkur jarayonning pirovard natijasidir. Biroq ajablanarli joyi shundaki, mutafakkirning keyingi mulohaza va qarashlarida ushbu xulosa rivojlanmay qolgan, buning ustiga har ikkala tushuncha aynan birbiriga o'xshash, to'ldiruvchi mazmunda ishlatilgan. Arastu "Ijod o'z-o'zini anglashdagi determinallashgan faoliyat bo'lib, u bilimning yangidan-yangi sifat ko'rsatkichlarini yuzaga keltiradi", deb tushuntirgan. Kreativlik va aql (intellekt)ni ajratib talqin qilish Suqrotidan boshlab, Aflotun, Arastu va keyinchalik Kant, Gegel falsafalarida ham alohida ahamiyat kasb etgan. Ijodiy jarayonni Aflotun "ruhlanish" va "ilohiy kuch" atamaları orqali asoslashga intiladi. Uning fikricha, "Shoir san'ati va bilimi bilan ijod qilmay, balki ilohiy quvvatdan ijod qiladi". "Kreativlik" va "kreativ tafakkur" masalasida yunon faylasuflari singari musulmon olim-mutafakkirlari ham o'ziga xos maktab yaratganlar. Shu ma'noda diniy-falsafiy ta'limotlar mutakallimlik va mo'taziliylik, sunniylik, shialik va tasavvuf kabilarda insonning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e'tibor berildi. Chunonchi, kalomning ikki yirik yo'nalishi mutakallimlik va mo'tazoliylik islom ta'limoti qoidalarini talqin etishda ijodiy yondashuvni ishga solishni, kreativ usullardan foydalanishni yoqlab chiqdilar. Sharq faylasuflari Al-Kindiy, Al-Forobiy, Ibn Sino, Al-G'azzoliy va Ibn Rushd ilk o'rta asrlar sharoitidayoq kreativ tafakkur tushunchasining ma'no va mohiyati, mazmun va shaklini aniqlab berishga va u haqda bir butun yaxlit ta'limot yaratishga harakat qildilar. Abu Nasr Forobiy shoirlar misolida: "Endi biz senga aytsak, shoirlar chindan tug'ma qobiliyatli va she'r bitishga tayyor tabiatli kishilar bo'ladi va ularda tashbeh va tamsilga layoqati yaxshi ishlaydigan bo'ladi. Bu xil shoirlar she'r navining ko'p turida yo bo'lmasa bir turida ijod qilishga layoqatli bo'ladilar" – deb badiiy ijodning ahamiyatini ko'rsatgan. G'arbiy Yevropada kreativlik inson ijodiy tafakkuri bilan emas, balki bilishning yuqori bosqichi "ilohiy bilish" usuli sifatidagi tasavvurlar XII asrning oxirlarida shakllana boshladi. Bunday tasavvurlarning hosil bo'lishiga XII asr boshlarida Duns Skott, Uilyam Okkam va Foma Akvinskiy tarfdorlari o'rtasidagi bahslar zamin yaratdi. Bizga ma'lumki, Duns Skott va Uilyam Okkam sxolastikani yirik namoyondalari sifatida kreativlikni irodaga bo'ysunuvchi, ilohiy bilish usuli, ya'ni bilishning oliy shakli ekanligiga urg'u berib, uni mutloqlashtirgan holda inson tafakkuriga

qaramaqarshi qo'yadilar. Foma Akvinskiy esa kreativlikni Arastucha ijodiy imkoniyatdan ijodiy voqelikka o'tish jarayoni ekanligini yoqlab, irodani kreativlikka bo'ysundiradi. Uning fikriga ko'ra, kreativlik deganda kishining voqea va hodisalarni faqat ijodiy aql bilan payqaladigan jihati tushuniladi. Shu asnoda kreativlik voqea va hodisalarning ijodiy aql-idrok orqali bilish xususiyatini ifodalovchi fundamental tushunchaga aylandi. Gollandiyalik mashhur faylasuf Baruz Spinozaning ta'kidlashicha, kreativ tafakkur intellekt belgilab bergan qat'iy qoidaga muvofiq harakat qiladi. Ya'ni bunda inson o'zining kreativ tafakkur orqali eng umumiy tushunchalarga asoslanib ichki va tashqi voqelik xususida ijodiy va mustaqil xulosalar chiqaradi. Shuningdek, ma'lum qoidalarga asoslanib harakat qilgan ijodiy tafakkur qandaydir ma'naviy avtomat vazifasini bajaradi.

Kreativlik insonni fikrlash qobiliyatini yanada takomillashtirgan holda ijtimoiy hayotning, inson faoliyatining oliy boshqaruvchisi vazifasini bajaradi va uni ezgu amallar tomon yo'naltiradi. Bunday ijodkor inson hamisha borliq bilan uyg'un holda xarakat qiladi. Fransiyalik faylasuf Anri Bergson esa "Ijodni intellektning yuqori bosqichi" deb e'tirof etadi. Olmon mumtoz faylasufi Gegel esa "Ijodiy tafakkur bir butun yaxlit ob'yektlarning bo'laklarga bo'linishidir, deydi. Butunni bo'laklarga bo'lish jarayonida ijodning quvvati, butunni bo'laklarga ajrata olish qobiliyatlari, o'sha bo'laklarning birining ikkinchisi bilan bog'liqligi, aloqadorligi yaqqol namoyon bo'ladi... Ijodiy tafakkurning aqldan farqi shundaki, u eng avvalo yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishni o'zida mujassamlashtiradi" Gegelni bu fikrini tanqid qilib, Daniyalik faylasuf Syoren Kyerkegor uni qarashlarini haddan ziyod umumlashib ketganligini ko'rsatib o'tadi. Haqiqatdan ham Gegel butunlay umumiylikka o'zini bag'ishlagan edi. Chunonchi. Rafiqasining aytishicha, uni yaxshi ko'rgan ma'lum taomi yo'q bo'lgan. Uning uchun faqat umumiy taom mavjud edi. Gegel qarashlarining mazmun-mohiyati Kyerkegor fikricha, "umumiy mohiyatlarga qaratilgan, bunda o'ziga xos mavjudlik, individuallik bu yerda tan olinmagan edi". Gegel fikricha, "Ijod qilish odamzodning azaliy fazilatidir. Biroq odamlarning ijodiy izlanishlari shu qadar farqlanishi mumkinki, hatto ular bir-birlariga butunlay zid bo'lishi ham mumkin". Insonni zehni uni aqliy zukkoligi va xotirasining zarur vaqtlarda pand bermasligi bilan bog'liq bo'lib, unda inson tabiat, jamiyat to'g'risidagi fikrlarini o'z-o'zini anglash borasidagi aqliy mushohadalarni izchillik bilan ma'lum bir tartibga soladi. Shu boisdan ham N.A.Shermuhamedova "...fandagi uzluklilik ijodiy jarayon va oldingidan mutlaqo farq qiluvchi yangi bilimning paydo bo'lishida namoyon bo'ladi", - deb yozadi.

Hozirda iste'dodga diniy nuqtai-nazardan yoki tasavvufiy jihatdan yondashishlar ham mavjud bo'lib, bunga muvofiq inson mavjud diniy amallarni

bajarish orqali o'z iste'dodini yanada mukammallashtirishi mumkin. Tasavvufiy nuqtai-nazaridan esa inson o'z nafsini yengish orqali mavjud ichki ruhiyatini sof xolga keltirishi asosida o'z iste'dodini aks ettirishi va uni yanada rivojlantirishi mumkin. Bizning fikrimizcha bunday yondashuvlarni ma'lum bir pozitiv "ijobiy" jihatlarini inobatga olgan holda iste'dodni shakllantirish va uni yanada rivojlantirish xususida fikr yuritish kerak. Ya'ni iste'dod dastlab Olloh tomonidan insonga berilgan katta tortiq bo'lib, undan inson unumli foydalanishi, uni ezgu maqsadlar sari yo'naltirishi lozim bo'ladi. Bunday iste'dod sohiblari esa barcha zamonlarda ham jamiyatning, davlatning bebaho intellektual mulki hisoblangan. Kreativ tafakkur zehn, iste'dod va qobiliyatni ma'lum bir me'yorda namoyon bo'lishining dastlabki uchqunlari yoshlarning iqtidori orqali namoyon aks etadi. Bunday iqtidorli yoshlarni o'z vaqtida ilg'ab olgan holda ularni kasbga to'g'ri yo'naltirish yaxshi samara beradi, albatta. Bu xususida buyuk Sharq mutafakkiri Imom G'azzoliy ham o'zining "Ihyou ulum ad-din" (Din ilmlarini jonlantirish) asarida inson aqlining o'zigaxosligi xususida fikr yuritib shunday degan edi: "Aql zaruriy ilmlarning bir qismidir. Joiz narsalarni joiz, mahol narsalarni mahol bilish kabi va u yana aslida durust, chunki bu ilmlar mavjuddir. Zohir ham aql deb nomlanadi. Ammo bu g'arizani inkor etish, faqatgina ana shu ilmlar mavjud deyish fosidlikdir"[1]. Hozirgi davr ilm-fani xulosasi va hisob-kitobiga ko'ra insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida atigi 300 ga yaqin kishi daxolar sifatida e'tirof etilgan. Jamiyatda bunday toifa insonlarni miqdor va sifatini ko'paytirish uning buguni va kelajagini yanada nurafshon bo'lishida muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Xullas, kreativ tafakkur tabiat, jamiyat va insonni o'z-o'zini isloh qilishiga ko'ra quyidagi vazifalarni bajaradi. Kreativ tafakkur birinchi navbatda gneseologik vazifani bajaradi. Ya'ni inson o'zining ijodiy tafakkuri orqali o'zi yashayotgan dunyoni bilishga, voqelikni butunligicha idrok qilishga intiladi. Insonni hissiy a'zolari orqali olingan dunyo to'g'risidagi axborotlarni jamlagan xolda fikr mushohada yuritadi. Bu jarayon inson kreativ tafakkuri gneseologik vazifasini keng ma'noda talqin etish bo'lsa, tor ma'noda esa insonlar o'z ijodiy salohiyati orqali voqelik, predmet yoki xodisa to'g'risida mustahkam bilimga ega bo'lish, tasavvur, idrok, sinchkovlik va aqliy zukkolik asosida mavjud bilimlarga tanqidiy yondashib, kerakli xulosa chiqarish kabalarni o'z ichiga oladi.

Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatga sezilarli innovasiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega.

Amerikalik olim D. Veksler “Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo èki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo‘lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o‘zga xoslik, noèblik sifatlarini anglashga èrdam beradi ” - deb ta’rif beradi.

Kreativlik tushunchasining lug‘aviy ma’nosi ingliz tilida “create ” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor ma’nolarini anglatadi. Jamiyat haètining qaysi sohasida qo‘llanilishiga qarab turli soha vakillari tomonidan turlicha ta’riflar berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, pedagogik nuqtai nazardan èndashganda, kreativlik pedagogning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayèrlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi. Psixologik nuqtai nazardan èndashganda, kreativlik inson shaxsining ijodkorlikka bo‘lgan qobiliyati, ijodkorlik iste’dod darajasi, individning an’anaviylik èki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo‘lgan, prinsipial yangi g‘oyalarni yaratishga tayèrlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o‘zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil faktori sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlaridir. Umuman olganda, bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi. Kreativ shaxs esa, o‘zining fikrlashi, dunèqarashi, doimo yangiliklarga intilishi, o‘z ustida tinimsiz ishlashi, muammoga boshqa shaxslarga qaraganda noodatiy tarzda yechim topa olishi va original qarashlarni bildirga olishi, qiziqarli suhbatdosh bo‘lish va boshqa xususiyatlarni o‘zida aks ettirmog‘i lozim. Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g‘oyalarni yaratishgina uchun emas, balki haèt tarzining, èki alohida olingan aspektlarni yaxshilash uchun qo‘llash va shaxsning ichki dunèsi rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. A.Maslou ham kreativlikni – barchaga xos tug‘ma ijodiy yo‘nalish, atrof muhitning ta’sirida ko‘pchilikda yo‘qolib ketuvchi faoliyat deb hisoblaga. Amerikalik psixolog olim Djo Pol Gilford o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarida kreativlik va intellektni birinchi marotaba taqqosladi. U intellekt strukturasi modelini yaratishda tafakkurni konvergent va divergent turiga ajratdi. Konvergent tafakkur - (lotincha convergere– “bir yo‘ldan”) tafakkur formasi bo‘lib, muammoning bir qancha yechimlaridan faqat yagona to‘g‘risini tanlashdir. Konvergent tafakkur asosida intellekt ètadi, shuning uchun intellektual tafakkur deb ham ataladi. Divergent tafakkur – (lotincha divergere – “bo‘linish”) ijodiy tafakkur metodlaridan biri bo‘lib, berilgan bir muammoning bir qancha yechimlarini topish, shuning bilan bir qatorda, divergent tafakkur “bir vaqtning o‘zida turli yo‘nalishlarga izlanish, ya’ni bir muammoga bir nechta to‘g‘ri javoblar borligini va original ijodiy g‘oyalarning tug‘ilishiga xizmat qiladi [5] Divergent tafakkurning negizini esa kreativlik tashkil etadi. Kreativlik

tafakkurning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lib, shaxs tafakkuri qanchalik yaxshi rivojlangan bo'lsa, kreativ fikrlashi ham shunchalik rivojlangan bo'ladi. Biroq kreativlik faqatgina tafakkurning yuqori darajada rivojlanganligi bilan hosil bo'lib qolavermaydi, ya'ni intellektual salohiyati yuqori shaxs har doim ham kreativ fikrlay olmasligi mumkin. Buni Djo Gilford tadqiqotlarida ham ko'rishimiz mumkin. Gilford o'z kreativlik strukturasi divergent tafakkurdan tashqari o'zgaruvchanlik qobiliyati, yechimning aniqligi va boshqa intellektual parametrlarni birlashtirdi. Shuningek, u kreativlik va intellekt o'rtasida o'zaro uzviy aloqa borligini isbotladi. Biroq, Gilford o'z tajribalarida yuqori intellektuallilarning test yechish davomida ijodkorlik xulqini har doim ham ko'rsatmasligini, kreativ past intellektualli bo'lmasligini aniqladi. Shunday ekan, divergent tafakkur kreativ jara'ening barcha xususiyatlarini aks ettirmaydi.

E.P.Torrens fikricha, "kreativlik" tushunchasi negizida quyidagilar èritiladi: - muammoni èki ilmiy farazlarni ilgari surish; - farazni tekshirish va o'zgartirish; - qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; - muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning - o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik. Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin.[5] Umuman olganda, kreativlik – bu yangi, original g'oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar topishdir. Kreativ tafakkur esa revolyusion tafakkur bo'lib, u konstruktiv xarakterni ifodalaydi. Kreativ fikrlashda ta'lim-tarbiya jara'eni muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ fikrlash bugungi kunda èshlar egallashi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir.[6] Mazkur ko'nikma, èshlarga bugungi shiddat bilan o'zgaraètgan, zamonaviy axborot kommunikasiyalaridan faol foydalana oladigan, oddiy savodxonlikdan ko'ra ko'proq natija ya'ni tashabbuskorlik talab qilinaètgan, bir so'z bilan aytganda XXI asr ko'nikmalariga ega malakali kadrlarga talab kuchayaètgan bir paytda ushbu jaraenga moslashishiga va raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, kreativ fikrlash jamiyat haètida muhim o'ringa ega bo'lgan, shaxsning tafakkuri bilan bevosita bog'liq bo'lgan jaraen hisoblanib, shaxsda, ayniqsa, èshlarda ushbu ko'nikmani shakllantirish kelgusida mamlakat taraqqiètining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Yoshlarni kreativ fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi jihatlariga ahamiyat qaratish lozim. Birinchidan, shaxs tarbiyasida bolalikdanoq uning fikri muhim ahamiyat kasb etishini va jamoada o'z o'rniga ega ekanligni xis qildirib borish; Ikkinchidan, bugungi kunda jamiyatda shakllangan dogmatik qarashlardan voz kechish; Uchinchidan, boshqaruv jara'ida avtokratik usullardan ko'ra demokratik usullarni ko'proq qo'llash; To'rtinchidan, kreativ fikrlaydigan shaxslarning g'oyalarini va qarashlarini hurmat qilish hamda ularni qo'llab quvvatlash lozim. Zero, jamiyatda

lokomotiv sifatida har doim liderlar o'z faoliyatini amalga oshiradi. Bugungi kunda liderlarning aksariyati kreativ fikrlovchi kishilardir.

G'ildirakning kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari bugun koinotda kezib yuribdi. Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratadi, og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo'lagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislariga talab katta. Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar, mobil telefonlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mutaxassislaridan har kuni yangi g'oya so'raladi. Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislariga talab oshib borayotgan ekan, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb vazifadir. Haligacha ta'lim tizimida ko'plab yondashuv va metodlar ijodiy fikrlash emas, talqin va tahlilga, ya'ni berilgan ma'lumotni tushunib, to'g'ri yetkazishga, nari borsa, bir necha axborotni umumiyashtirib, xulosa chiqara olishga yo'naltirilgan.

Fikr yoki g'oya bu - aqlimizning ijod faoliyati mahsulidir. Aqlimizda turli muammolarning yechimi yoki yangiliklar haqida fikrlar tug'iladi. Fikrlar odatda biror hayotiy muammo yechimini izlash jarayonida shakllanadi. Biror bir vazifa haqida o'ylaganda, biror qiyin vaziyatga tushganda inson fikrlashga majbur bo'ladi. Ba'zi hollarda insonda istamagan holda ham ajoyib fikr tug'ilishi mumkin.

Ko'p olimlar shuni tan oladilarki, ularning aksariyati biror masalaning yechimini izlayotganda bir joyda o'tirmas, balki albatta harakatda bo'lib turishi kerak. Qachonki bizning tanamiz harakatda bo'lsa, shunda aqlimizga muammolar yechimi oson keladi. Fikr tug'ilishi uchun ongda bor obraz (model)ning hech bo'lmaganda ikkitasi qo'zg'alishi zarur. Miya har qanday fikrni u yoki bu aniq kodli shaklga soladi. Turli odamlarda ko'rish, eshitish, so'z, harf, raqam va boshqa kodlardan foydalanish qobiliyati har xil. Ma'lumotlarni kodlash aks ettirilayotgan hodisa mazmuni va tuzilishiga muqobil bo'ladi. San'atda va adabiyotda maxsu "kodlash" orqali mazmun yoritiladi. Masalan, mumtoz adabiyotda miya konkret kod orqali g'oya yaratadi. Agar odam ko'rgazmali-obrazli tasavvurlardan foydalanishga moyil bo'lsa, ko'rib idrok qilishi kuchli bo'ladi. Akustik-obrazli tasavvurning ustunligi musiqiy fantaziyadan darak beradi. Borliqni so'z-obrazlar shaklida o'zlashtirishga moyillik shoirlik fantaziyasini xarakterlaydi. Lekin bu - odamni rassom, kompozitor yoki shoir qilib qo'ymaydi. Bu kasblar qobiliyat, ko'nikmalarning yaxlit kompleksini, shuningdek, qobiliyatlarni yo'naltirishga yordam beruvchi shaxsiy sifatlarni talab qiladi.

2. Kreativlik va kreativlik fikrlashning mohiyati

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha “create” soʻzidan olingan boʻlib, “yaratish” maʼnosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamiyida beqiyoslik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, maʼnaviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega boʻlgan bilimlarning koʻpchirali ekanligida emas, balki yangi gʻoyalarga intilish, oʻrnatilgan stereotiplarni isloh qilish va oʻzgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon boʻladi. Yaʼni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib boʻlmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi gʻoyaning paydo boʻlishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida soʻzlarni yodlab, grammatika qoidalarini “suv qilib ichib yuborgan” boʻlsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol oʻynaydi. Albert Eynshteyn “Tasavvur — bilimdan muhim” deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Koʻpincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

Inson miyasi oʻz ishini “yengillashtirish”, “qulaylashtirish” uchun qoliplar va stereotiplardan foydalanadi. Stereotiplar shu paytgacha maʼlum boʻlgan va umumqabul qilingan fikrlardir. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi gʻoya bermaydi. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor boʻlgan ijtimoiy fikr, media mahsulotlarda taqdim etilayotgan shakl va koʻrinishlar ham yetakchi oʻrin tutadi. Inson ommadan ajrab qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qoʻshiladi. Qolaversa, “oqim boʻylab suzish” mustaqil fikrlashdan koʻra oson tuyuladi. Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu boʻyicha inson ongiga “soʻrov” berilganida odatiy maʼlumot va mulohazalar yuzaga keladi.

3. Kreativlikning rivojlanish bosqichi

Kreativlikning rivojlanish davri — maʼlum kreativlik sifatlarining rivojlanishi yakuniga etgan qandaydir vaqt birligi. Kreativlikning rivojlanish bosqichi — muayyan kreativlik sifatlarining rivojlanganlik darajasi. Shunga koʻra maʼlum davr va bosqichlarda pedagoglarda ham kreativlik sifatleri, ijodiy faoliyat malakalari rivojlanadi. Kreativ tafakkurga ega boʻlajak pedagoglar: boshqa boʻlajak

pedagoglarning xayoliga kelmagan g'oyalarni bildiradi; o'zlarini ifoda etishning o'ziga xos uslubini tanlaydi; ba'zan mavzu aloqasi yo'q yoki g'ayrioddiy savollar beradi; echimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi; g'oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko'radi; muammoning echimini topishda noan'anaviy yondashuvni tanlaydi.

Shaxsga xos kreativlik sifatlari quyidagilar sanaladi:

- Ijodiy yo'nalganlik;
- Mantiqiy fikrlash qobiliyati;
- Eruditsiya (bilag'onlik);- Boy tasavvurga egalik;
- Ijodiy ta'sirchanlik va tashabbuskorlik;
- O'z ijodkorligini to'la-to'kis namoyish etish;
- Refleksiya qobiliyati;
- Hissiyotga boylik;
- Tavakkal qila olish qobiliyati;
- Tafakkur tezligiga egalik;
- Ichki sezgining rivojlanganligi;
- O'ziga xos (orginal) g'oyalarni ilgari sura olish qobiliyati;
- Innovatsion qobiliyatga egalik;
- Yuksak badiiy qadriyatlarga egalik;
- Mavjud tajriba va bilimlar asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasi.

Kreativlik tushunchasi (lot., ing. "create"yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma'nosini anglatadi. Haqiqattan esa yangi, original (o'ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma'naviy bog'liqliklarni yaratishdir. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. Shaxsning kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish laoyiqatidir. "Kreativlik otasi" nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta

kreativlik ko`nikmasini aniqlagan (1987y). Uning olib brogan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko`nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin:

1. Ravonlik. Ko`plab g`oyalarni o`ylab topish ko`nikmasi ko`p degan so`zga asoslanadi.
2. Moslashuvchanlik. Turli g`oyalarni o`ylab topish ko`nikmasi o`zgartirish degan so`zga asoslanadi.
3. O`ziga xoslik. Boshqalarga o`xshamagan, ajralib turuvchi g`oyani o`ylab topish ko`nikmasi noyob degan so`zga asoslanadi.
4. Yaratuvchanlik. G`oyalarni kengaytirish ko`nikmasi qo`shish degan so`zga asoslanadi. Xorijliy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning, ayniqsa, o`qituvchining kreativligi boshqa (talaba)larni ijodiy jarayonni tashkil etishga ruhlantiradi.

“Kreativlik yuqumlilik xususiyatiga egadir; kreativ bo`lish uchun kishi ko`proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo`lishi lozim. Har qanday ko`nikmani shakllantirish mumkin bo`lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko`nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu bo`lajak pedagoglarga ham taalluqli bo`lib, kreativlik ustida ishlash bo`lajak pedagoglarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq, bo`lajak pedagoglarni ruhlantirish va kreativ bo`lishga undash o`qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog`liq. Kreativlik bo`yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik nazariyachilarining ishlari bo`lajak pedagoglarda kreativlik ko`nikmasinishakllantirishda qo`llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit,bo`lajak pedagoglarda fikrlash tarzining shakllanishi, o`qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o`z ichiga oladi”

2-MAVZU: SHAXSIY IJOD VA IJODIY FIKRLASH VOSITALARI

Reja:

1. Shaxsiy ijod: ta'rifi va ahamiyati
2. Kreativ fikrlashda ta'limning o'rni qanday?
3. Shaxsiy ijodkorlikni rivojlantirish uchun samarali strategiyalar
4. Ijodiy fikrlash usullari

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, histuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "talabalar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi". Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o'qituvchilar ham o'zlarida kreativlik sifatlari mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P.Torrens tomonidan 1987 yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o'tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o'ziga xos (original)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo'yicha baholash imkoniyatini yaratadi. Talaba tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to'rtta mezonni qanotlantirishi lozim E.P.Torrens fikricha, "kreativlik"

tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;- farazni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;

Kreativ muammo echimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin.

Shaxsiy ijod nima?

Yangi g'oyalar eskilaridan kelib chiqadi degan kuzatish amaliy ahamiyatga ega, chunki bu bizga ijodkorlik uchun bilim zarurligini aytadi. Ijodkorlik vakuumda bo'lmaydi. Bizning tasavvurimiz qisman bilgan narsamizga bog'liq. Agar siz juda oz narsani bilsangiz, yangilarini olish uchun faqat bir nechta g'oyalarni birlashtira olasiz.

Ko'proq bilganingizda, siz ilgari surishingiz mumkin bo'lgan yangi g'oyalar kombinatsiyasi sezilarli darajada oshadi. Ijodiy yutuqlar boshqa odamlar tomonidan ilgari erishilgan yutuqlar asosida qurilganligini ko'pincha unutamiz. Nyuton fizikasisiz, Eynshteyn, ehtimol, yopiq nisbiylikka ega bo'lmaydi. Nyutonning o'zi mashhur: "Agar men bundan bir oz ko'proq narsani ko'rgan bo'lsam, bu ulkanlarning yelkasida turish bilan". Yangi bir narsa yaratish uchun, bu boshqa odamlarning nima qilganini va qaysi narsalarning ishlayotganini va qaysi birining ishlamasligini bilishga yordam beradi.

Ijodiy turlar g'ayratli o'quvchilar ekanligi va ular ko'pincha hamma narsani juda ko'p o'qishlari ajablanarli emas. Mark Tvenning "O'qimagan odam o'qiy olmaydigan odamdan ustunligi yo'q" degan mashhur taklifini eslang. Ijodkorlik va bilim Hozirgi kunda ta'lim sohasidagi islohotlar ko'pincha ijodkorlikni ta'kidlaydi va uzoq o'qish uchun juda muhimdir. Ammo unutmasligimiz kerakki, ijodkorlik xomashyo sifatida bilim va ma'lumotga tayanadi. Microsoft raisi Bill Geyts: "Siz ulardan tashqarida ixtiro qilish uchun narsalarni tushunishingiz kerak", dedi. Dunyoning eng innovatsion kompaniyalaridan biri hisoblangan Apple kompaniyasining bosh direktori Stiv Djobs ijodkorlar haqida shunday degan: u o'zlarida bo'lgan tajribalarni bog'lashga va yangi narsalarni sintez qilishga qodir edi. Va buning uddasidan chiqishlarining sababi shundaki, ular boshqa odamlarga qaraganda ko'proq tajribalarni boshdan kechirgan yoki o'z tajribalari haqida ko'proq o'ylashgan. Bizning sanoatimizdagi ko'plab odamlar turli xil tajribalarni boshdan kechirmaganlar. Ularda ulanish uchun nuqta etarli emas va ular juda chiziqli yechimlar bilan tugaydi, muammoga keng nuqtai nazarsiz. Insonning avvalgi hayoti haqidagi tushunchasi qanchalik keng bo'lsa, biz shunchalik yaxshi dizaynlarga ega bo'lamiz.

O'z-o'zidan yangi narsa bilan tanishish qiyin emas, lekin ijod uchun bu etarli emas. Ilgari hech kim o'ylamagan global isish bilan kurashishning yangi usullari haqida o'ylash oson: dunyodagi odamlarning yarmini o'ldirish yoki havoni sovutish uchun barcha konditsionerlarni yoqish. Ushbu g'oyalar yangi bo'lishi mumkin, ammo ular shunchaki ahmoqdir va ulardan 1000tasini ishlab chiqarish sizni ijodiy odamga aylantirmaydi. Ijodkorlik - bu yangi foydali g'oyalarni taklif qilish, shuningdek foydali.

Bu bizni kreativlikni rivojlantirishda tanqidiy fikrlashning muhim rolga olib keladi. Birinchidan, biz muammoni tahlil qilish va mavjud echimlarning chegaralarini aniqlash uchun tanqidiy fikrlashdan foydalanamiz. Shunday qilib, qanday yaxshi yechim bo'lishi mumkinligini bilamiz. Va yangi yechimga ega bo'lganimizda, tanqidiy fikrlash haqiqatan ham ish beradimi yoki yo'qligini

aniqlashga yordam beradi. Haqiqiy ijodiy jarayon sinov va xatolarni o'z ichiga oladi. Eng yaxshi echimni topishdan oldin biz ming marta muvaffaqiyatsiz bo'lishimiz mumkin. Yaxshi tanqidiy fikrlash xatolarimizdan saboq olishga va muammolarimizni yanada samarali hal qilishga imkon beradi. Bandlikda ko'pincha ijodiy g'oya va yangilik o'rtasidagi farq ajratiladi - g'oya u amalga oshirilganda yangilik bo'lib, sezilarli tijorat yutug'i yoki ijtimoiy ta'sirga ega bo'ladi. Amaliy ta'sirni yaratishning ushbu hal qiluvchi jarayoni ham yaxshi tanqidiy fikrlashni talab qiladi.

Ba'zan tanqidiy fikrlash ijodkorlik uchun zararli deb aytishadi, chunki tanqidiy fikrlash yangi g'oyalarni to'liq rivojlanmasdan o'ldiradi. Biroq, bu juda noto'g'ri tushunchadir. Tanqidiy fikrlash g'oyalarni to'liq sinab ko'rilishidan oldin ularni rad etishni buyurmaydi. Shuningdek, to'xtovsiz o'ylab, tahlil qilishimiz kerak emas. Agar hukmni to'xtatib turish ba'zan ijodkorlikni kuchaytirsas, buni amalga oshirish oqilona bo'ladi. Ko'pchilik ijod ilhom kutish bilan bog'liq va ilhom oddiy odamlarga qaraganda daholarga osonroq keladi deb o'ylashadi. Bizning bilimimiz va tanqidiy fikrlashning o'рни haqidagi bahsimiz bu to'g'ri emasligini aytadi. Bundan tashqari, ba'zi psixologlar ijodkorlarning odatda IQ o'rtacha darajadan yuqori, ammo IQ 120 dan yuqori, IQ nihoyatda yuqori ekanligi ijodkorlik darajasiga unchalik katta ahamiyat bermasligini aniqlashgan. Agar taniqli ijodkor daholarning ish tarixiga nazar tashlasak, ular ko'pincha mehnatsevar va intizomli ekanliklariniva ularning yutuqlari keng muhokama qilingan.10 yillik qoidaga amal qilishlarini aniqladik. Motsart yaxshi misoldir. Ommabop afsona shundaki, u g'ayrioddiy musiqani hech qanday kuch sarflamasdan yaratgan daho bo'lgan.

Haqiqat shundaki, u har qanday tug'ma iste'dodga ega bo'lsa ham, u butun hayoti davomida juda ko'p mehnat qildi. Motsartning otasi unga bolaligida musiqa o'rgatgan va Motsart 28 yoshga kirganida, uning qo'llari doimiy mashg'ulot va bastakorlikning sabablari bo'lgan. Ushbu fidoyilik va mehnatsevarlik musiqa bilimlari va g'oyalari haqida ma'lumotlar bazasini yaratdi Motsart qayta-qayta o'rganishi mumkin edi. Motsartning o'zi bu haqiqatni do'stiga yozgan maktubida ta'kidlagan, "Mening san'atim menga osonlik bilan keladi deb o'ylaydigan odamlar adashadi. Sizni ishontirib aytamanki, aziz do'stim, hech kim men kabi kompozitsiyaga ko'p vaqt ajratmagan va o'ylamagan."

Kreativ fikrlashda ta'limning o'рни qanday?

Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. Bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan

o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari «XXI asr» ko'nikmalariga ega ishchilarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kela jakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda. O'quvchida kreativ fikrlashko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi.

Shaxsiy ijodkorlikni rivojlantirish uchun samarali strategiyalar

Shaxsiy ijodkorlikni rivojlantirish uchun samarali, tahliliy fikrlashning olti quroli Shaxsiy ijodkorlikni rivojlantirishda tahliliy fikrlashga aloqador tafakkur qurollarining soni faqat oltita emas, aslida ancha ko'p. Lekin biz eng muhimlarini tanlab olib, quyida ularni e'tiboringizga havola qilmoqchimiz.

1-qurol: Talqin

Talqin deganda sizga taqdim etilgan axborotni to'g'ri tushunib, uni boshqalarga to'g'ri yetkazib bera olish qobiliyati tushuniladi. Ishda yoki o'qishda siz turli holatlarda har xil ma'lumotlar bilan yuzlashasiz. Masalan, mijozlar uchun internet saytlarini yaratuvchi kompaniyada ishlasangiz, mijoz sizga qanday saytni xohlashi haqida o'z tushunchasi bilan ma'lumot beradi. Siz bu ma'lumotni to'g'ri tushunib, uni rahbariyatingizga yoki saytni yaratuvchi xodimlarga ular tushunadigan uslubda tushuntirib bera olishingiz kerak.

2-qurol: Tahlil

Tahlil deb turli qismlardan iborat axborotlarni jamlab, ularning xulosasini tushunishga aytiladi. Masalan, siz ishlovchi kompaniya keyingi besh yillik ish rejasi haqida bayonot chiqardi. Unda kutilayotgan o'zgarishlar, kompaniya oldida turgan eng ustuvor vazifalar haqida umumiy ma'lumot berilgan. Siz bu bayonotni o'qib, uning siz egallab turgan lavozimga qanday ta'sir qilishi mumkinligini tahlil qilasiz. Sizning lavozimingiz yoki ishingiz haqida hech qanday aniq ma'lumot aytilmagan bo'lsa ham, kelgusi besh yillik reja va ustuvor vazifalarni tahlil qilib, bu o'zgarishlar ish o'rningizga qanday ta'sir qilishi mumkinligi haqida xulosa chiqarasiz.

3-qurol: Mantiqiy va dalil asosida fikrlash

Mantiqiy va dalil asosida fikrlash mavjud ma'lumotlar asosida to'g'ri xulosa yoki natijaga erishish uchun yana nimalar lozim bo'lishini anglash qobiliyatidir. Masalan, oxirgi oyda kompaniyangiz mahsulotlarining sotilishi ancha kamaydi. Boshqaruvchi sifatida buning sababini bilishingiz juda muhim. Aniq sababi haqida

to'g'ri xulosaga kelish uchun esa sizga yana qo'shimcha ma'lumotlar kerak bo'lishini tushunishingiz kerak. Ishlab chiqarish bilan bog'liq ichki muammolar, bozorda raqobatning kuchaygani yoki talabning sustligi kabi turli omillar savdoning pasayishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Siz ana shu barcha omillarni o'rganib, dalillardan foydalanib, nega savdo kamaygani haqida so'nggi xulosaga kelasiz.

4-qurol: Baholash

Sizga taqdim etilayotgan ma'lumotlarning to'g'riligini aniqlash uchun shu axborotni sizga yetkazayotgan shaxsning tajribasi, fikri va qarorining qanchalik xolisligini to'g'ri baholay olishingiz kerak. Masalan, siz kompaniyangiz mahsulotlarining qanchalik sifatli yoki sifatsiz ekanini aniqlash uchun bir necha mijoz o'rtasida so'rov o'tkazasiz. Mijozlarning yarimlari mahsulot haqida salbiy, ayrimlari ijobiy fikr bildiradi. Mahsulotingiz haqiqatan sifatli yoki sifatsiz ekani haqida so'nggi xulosaga kelishdan oldin fikr bildirgan mijozlarning aytganlari qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riligini boshqa omillarni hisobga olgan holda tekshirib chiqishingiz kerak. Ya'ni, ularning gaplarini tekshirmasdan to'g'ridan-to'g'ri qabul qilishingiz sizning baholash qobiliyatingiz zaifligidan dalolat beradi.

5-qurol: Tushuntirish

Siz ma'lumotlarni nafaqat yetkazishni, balki qo'shimcha ma'lumotlar orqali tushuntirishni ham bilishingiz kerak. Chunki sizdan axborotni qabul qilayotgan odamda tug'iladigan qo'shimcha savollarga ham javob bera olishingiz kerak. Demak, biror masalani o'rganganda uni boshqalarga batafsil tushuntirib bera oladigan darajada bilishingiz kerak. Masalan, kompaniyada sizning qo'l ostingizda ishlaydigan xodim o'tgan oy amalga oshirilgan ishlar haqida hisobot berdi. Siz bu hisobotni endi rahbaringizga topshirishingiz kerak. O'tgan oy qilingan ishlar haqida gapirganingizda qo'lingizdagi hisobotda mavjud bo'lmagan qo'shimcha ma'lumotlarga ham ehtiyoj tug'ilishi mumkin. Chunki rahbaringiz hisobot bo'yicha qo'shimcha savollar berishi mumkin. Demak, siz mavzuni to'liq tushuntirib berishga tayyor turishingiz kerak.

6-qurol: Imkoniyatingiz chegarasini bilish.

Biror ishni amalga oshirishda o'z imkoniyatlaringiz chegarasini hisobga oling va qurbingiz yetmaydigan ishlarni bajarishga urinmang. Masalan, siz bir kompaniyaga yangi xodim bo'lib ishga keldingiz va mijozlardan biri telefon qilib, ko'rsatilgan xizmat yuzasidan yordam so'ramoqda. Siz mijozga yordam berishni va unda yaxshi taassurot qoldirishni xohlaysiz, ammo u so'rayotgan masalada hali sizda yetarli bilim yoki tajriba yo'q. Bunday holatda muammoning eng yaxshi

yechemi telefonni tajribaliroq boshqa hamkasbingizga berishdir. Ishonchingiz komil bo'lmasa, o'zingiz bilmagan masalada gapirishdan yoki biror qaror qabul qilishdan ehtiyot bo'ling.

Ijodiy fikrlash usullari

1. Ishda chap qo'lni harakatga soling (yoki agar chapaqay bo'lsangiz, o'ng qo'lni). Bu qo'l bilan tishlarni yuving, ko'ylakning tugmalarini qadang, sho'rvani iching, kompyuter klaviaturasida matn tering va xat yozing. Bu nima uchun kerak? Harakatlantirishning faolligini bosh miyaning chap yarim sharidan o'ng yarim shariga o'tkazadi, noan'anaviy fikrlash va ijodiy qobiliyatga samarali ta'sir ko'rsatadi.

2. Yangi tuyg'ularni boshdan kechiring, yangi qobiliyatlarni rivojlantiring. Ko'zingizni ochib, dush qabul qiling. Cho'ntakdagi tangalarni ushlab ko'rib, qiymatini aniqlang. Ko'zi ojizlar uchun xat va o'qish tizimi bo'lgan Brayl alifbosidagi matnlarni o'qishga harakat qilib ko'ring. Bir kun davomida oila a'zolaringiz bilan imo-ishoralar orqali gaplashing. Bu nima uchun kerak? Miya faoliyatining odatda kam harakatda bo'lgan yoki umuman ishlamagan yangi qirralarini «o'zlashtirish» butun miyaning neyronlari uchun yaxshi gimnastika sanaladi.

3. Ko'z o'rganib qolgan imidjni o'zgartirishdan qo'rqmang.

O'zgacha bo'lgan yangi libosni kiying, qizlar sochlarining rangi va turmagini o'zgartirishlari mumkin. Bu nima uchun kerak? Kishini yangi imidjni sinab ko'rib, o'zini turlicha his etadi (hech bo'lmaganda erkaklar uchun «kostyum taassuroti» yoki ayollar uchun «baland poshna» haqida eslab o'ting!) va fikr yuritishi o'zgaradi.

4. Ishga yangi yo'nalish bo'ylab boring va yuring (hatto agar odat bo'lmagan yo'l uzoq bo'lsa ham!), ko'proq sayohat qiling, har bir ta'tilni yangi joyda o'tkazishga harakat qiling, muzey va ko'rgazmalarga boring. Bu nima uchun kerak? Fiziologiya mutaxassislarining so'nggi izlanishlarida tasdiqlanishicha, xotira maydoni kengayadi va hatto gippokampning hajmi kattalashadi.

5. Ishda va uydagi intererni ko'proq o'zgartiring, har kuni uydagi buyumlar, oshxona asbob-anjomlarining joyini almashtiring, g'aroyib reseptlar asosida taom tayyorlang, yangi atir sotib oling. Bu nima uchun kerak? Odatlar miyani toliqtiradi, yangiliklar esa rag'batlantiradi, hayotni yanada yorqin va esda qolarli qiladi.

6. «Ishlar qanday?», «Nima yangiliklar?» kabi asabga teguvchi savollarga ma'noli javob berishga harakat qiling, har safar yangi iboralarni o'ylab toping – qolip

so'zlardan qoching, latifalarni esga oling, yangi xazillar, qiziqarli voqealarini o'ylab toping, albatta suhbatda ularni qistirib o'ting. Nima uchun kerak? Agar siz barcha narsaga ijodiy, har tamonlama yondoshsangiz, xotirani va miyadagi nutq markazini kuchaytirasiz.

3-MAVZU. FIKRLARNI YARATISH: “AQLIY HUJUM” METODI

*Yovvoyi g'oyani jilovlash yangisini
o'ylashdan ko'ra osonroq.
Alex Osborn*

Reja:

- 3.1. “Aqliy hujum” metodining mazmun-mohiyati va bosqichlari.
- 3.2. “Aqliy hujum” metodidan samarali foydalanish qoidalari.
- 3.3. “Aqliy hujum” turlari.
- 3.4. Aqliy hujum uchun samarali usullar.

Mavzuni o'zlashtirish jarayonida talaba:

– aqliy hujum metodi, uning mazmun-mohiyati, turlari, shuningdek aqliy hujumdan samarali foydalanish qoidalari va usullari haqida

tasavvur va bilimga;

– aqliy hujum metodidan foydalanish va jarayonda faol ishtirok etish, aqliy hujumni tashkil etish qoidalarini tahlil qilish, aqliy hujum turlarini tavsiflash, aqliy hujumni tashkil etishda ishchi holatga qarab eng ma'qul tur va usulni tanlash

ko'nikmalariga;

– aqliy hujum samarali qo'llash, asosiy qoidalarga rioya qilgan aqliy hujumni tashkil etish, vaziyat va muhitga qarab aqliy hujum turini tanlash, aqliy hujum uchun samarali usullardan foydalanish

malakasiga ega bo'ladi.

3.1. “Aqliy hujum” metodining mazmun-mohiyati va bosqichlari

Aqliy hujum - bu aniq belgilab berilgan muammolarni hal qilish maqsadida o'rganuvchi guruhlar tomonidan g'oyalarni yaratish uchun foydalanadigan usul. Boshqariladigan sharoitda va erkin fikrlash muhitida jamoalar muammoga “Biz qanday hal qilishimiz mumkin?” savollari bilan murojaat qilishadi. Ular juda ko'p g'oyalarni ishlab chiqaradi va potensial yechimlarni topish uchun ular orasidagi aloqalarni o'rnatadi.

Mazkur metoddan biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadi. "Aqliy hujum" metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki "pinbord" doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. "Aqliy hujum" metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir.

Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy fikrlashga o'rgatadi. "Aqliy hujum" metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan, ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilarda o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Aqliy hujum metodidan ham ma'ruza, ham amaliy darslarda foydalanish qulay. Bu metod bir zumda auditoriyadagi barcha o'quvchitalabalarni qamrab olib ularni faol holatga keltiradi. Yaxlit mavzu, uning bir qismi yoki tanlab olingan muammo yuzasidan o'quvchi-talabalarga beriladigan savollar majmuasi o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan bo'lishi ishda yaxshi natija beradi. Aqliy hujum metodi qo'yilgan muammo yechimga bog'liq ravishda 5-10 daqiqa davom etishi mumkin. Bunda o'quvchi-talabalarning berayotgan javoblariga na o'qituvchining va na boshqalarning aralashuviga, har qanday fikr bildirishlariga yo'l qo'yilmaydi va natijalar baholanmaydi, ballar qo'yilmaydi. Bu qoida ko'pincha o'qituvchi tomonidan avtomatik tarzda buziladi, ya'ni talaba-o'quvchi bildirgan noto'g'ri fikrga tezda o'z munosabatini bildirib to'g'rilaydi. Bu vaziyat talaba-o'quvchilarni fikrlashdan to'xtatadi, darsda foydalanilayotgan aqliy hujum metodiga putur yetkazadi. Maqsad: noto'g'ri bo'lsada o'quvchitalabani o'z fikrini bildirishiga erishishdan iborat. O'qituvchi umumlashtirishdan so'ng bildirilgan fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'riligi har bir talabaga ma'lum bo'ladi. Talabalarning fikr yuritishlari o'qituvchi tomonidan to'g'ri yo'lga solib turiladi va rag'batlantirilib boriladi. Vaqti-vaqti bilan fikrlar umumlashtirib turiladi. Muammoning yechimi bo'yicha fikrlar shakllanib bo'lgach u oxirgi

marta umumlashtiriladi va aniq fikrga kelinadi. Shundan keyin talabalar o'zlarining takliflarini o'zlari solishtirib, to'g'ri va xato fikrlarini anglab yetishadilar va o'zlarini o'zlari baholaydilar. Ammo o'qituvchining ularga baho yoki tanbeh berishiga yo'l qo'yilmaydi.

Oddiy guruh muammolarini hal qilish, ko'pincha foydasiz guruh xatti-harakatlari tufayli buzilishi mumkin. Muammoni hal qilishda tizimli, tahliliy jarayondan boshlash muhim bo'lsa-da, bu guruhni cheklangan va tasavvurga ega bo'lmagan g'oyalarni rivojlantirishga olib kelishi mumkin. Aksincha, miya hujumi barchani ishtirok etishga undaydigan erkin va ochiq muhitni ta'minlaydi. Qiziqarli g'oyalar mamnuniyat bilan qabul qilinadi va ular asosida quriladi va barcha ishtirokchilar o'zlarining to'liq ijodiy yechimlarini ishlab chiqishda yordam berib, o'zlarining to'liq hissalarini qo'shishga da'vat etadilar.

3.1-rasm. "Aqliy hujum" metodining bosqichlari



"Aqliy hujum"ning afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;

Mualliflar tomonidan tayyorlangan

- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.

"Aqliy hujum"ning kamchiliklari:

- ta’lim beruvchi tomonidan savolni to’g’ri qo’ya olmaslik;
- ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

3.2. “Aqliy hujum” metodidan samarali foydalanish qoidalarini

Metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi umumiy qoidalariga amal qilish lozim:

- o’quvchilarning o’zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish;
- g’oyalarni yozib borish uchun yozuv taxtasi yoki varaqlarini tayyorlab qo’yish;
- muammo(yoki mavzu)ni aniqlash;
- mashg’ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo’lgan sharoitlarni belgilash;
- bildirilayotgan g’oyalarning ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish;
- qog’oz varaqlari g’oya (yoki fikr)lar bilan to’lgandan so’ng yozuv taxtasiga osib qo’yish;
- bildirilgan fikrlarni yangi g’oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash;
- boshqalar tomonidan bildirilgan fikr va g’oyalar ustidan kulish, kinoyali sharxlarning bildirilishiga yo’l qo’ymaslik;
- yangi g’oyalarni bildirish davom etayotgan ekan, muammoning to’g’ri yechimini e’lon qilishga shoshilmaslik;

Yuqorida keltirib o’tilgan asosiy qoidalar orqali quyidagi bir qator jihatlarga alohida e’tibor berish zarur:

- o’quvchilar tomonidan bildirilayotgan har qanday g’oya baholanmaydi;
- o’quvchilarning mustaqil fikr yuritishlari, shaxsiy fikrlarini ilgari surishlari uchun qulay muhit yaratiladi;
- g’oyalarni turlicha va ko’p miqdorda bo’lishiga ahamiyat qaratiladi;
- boshqalar tomonidan bildirilgan fikrlarni yodda saqlash, ularga tayangan holda yangi fikrlarni bildirish, bildirilgan fikrlar asosida muayyan xulosalarga kelish kabi harakatlarning o’quvchilar tomonidan sodir etilishiga erishiladi.

Aqliy hujumga cheklovlar yo’qdek tuyulishi mumkin, ammo har kim sakkizta strategik qoidalariga rioya qilishi va kimdir yordamchi vazifasini bajarishi kerak.

1. Vaqt chegarasini belgilang - muammoning murakkabligiga qarab, 15-60 daqiqa normal hisoblanadi.
2. Maqsadli muammo qisqacha so'zlardan boshlang – a'zolar ushbu keskin belgilangan savolga, reja yoki maqsadga murojaat qilishlari va mavzuni saqlab qolishlari kerak.
3. Hukm tanqiddan tiyiling - hech kim biron bir g'oyaga salbiy munosabatda bo'lmasligi kerak (shu jumladan tana tili orqali).
4. G'alati va noodatiy g'oyalarni rag'batlantiring.
5. Miqdorni maqsad qiling - esda tuting, "miqdor sifatni kuchaytiradi". Saralash va tanlab olish jarayoni keyinroq amalga oshiriladi.
6. Boshqalarning g'oyalari asosida qurish - bu a'zolar boshqalarning tushunchalarini kengaytiradigan va yangi g'oyalarni qo'lga kiritadigan, bu g'oyalarni o'zlarini boshlashiga imkon beradigan birlashma jarayoni. G'oyalarni muammoga yaqinroq qilish uchun "va" deb ayting – "lekin" bilan tushkunlikka tushirmaslik o'rniga.
7. Vizual bo'lib turing - diagrammalar va undan keyingi yordam g'oyalarni hayotga tatbiq etishga va boshqalarga narsalarni turli xil ko'rinishda ko'rishga yordam beradi.
8. Bir vaqtning o'zida bitta suhbatga ruxsat bering - aniq natijalarga erishish uchun shu yo'lda yurish va har kimning g'oyalariga hurmat ko'rsatish juda muhimdir.

3.3. "Aqliy hujum" turlari

Osborn va Klarkning fikriga ko'ra, miya hujumi an'anaviy ravishda imkon qadar kamroq qoidalar va majburiyatlar yordamida birlashadigan va ijodiy g'oyalar taklif qiladigan guruhni nazarda tutadi. Shunga qaramay, bugungi kunda "aqliy hujum" atamasi juda erkin talqin qilinmoqda va ko'pincha g'oyalarni o'z-o'zidan qidirish turini anglatadi, bu guruhda yoki yolg'iz qalam va qog'oz bilan amalga oshirilishidan qat'iy nazar.

Zamonaviy ishchi muhitlar "aqliy hujum"ning yangi turlarini yaratdi. Fikr almashish ularni yanada rivojlantirish uchun dasturiy ta'minot va onlayn platformalardan tobora ko'proq foydalanmoqda. Guruh ishi vositalari tobora takomillashib bormoqda va guruh loyihalari davomida yanada samarali almashinish uchun suhbatlar va kontent almashishni ma'qul ko'rilmoqda. Bunday vositalardan foydalanishning qulayligi ishchilarni o'z fikrlarini suhbat xonalarida baham ko'rishni har doim juda.

Alex F. Osborn asarlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan jozibador qiladi, bu esa tezkor qayta aloqa qilish imkoniyatini beradi.

Bunday turlarni miya hujumi vositasi deb tasniflash mumkinmi, munozarali bo'lib qolmoqda. Osborn va Klarkning fikriga ko'ra, "aqliy hujum"ning asosiy tushunchasidan uzoqlashadigan quyidagi boshqa turlarini ham keltirib o'tish mumkin.

ABC Aqliy hujumi (ABC Brainstorming)

Ushbu tur klassik aqliy hujumni qo'shimcha qoida bilan to'ldiradi, unda har bir mashg'ulot buyurtma qilingan tartib asosida o'tishi kerakligi aytiladi. ABC alifboning har bir harfini harflardan biridan boshlangan mos keladigan g'oyalarga berishga harakat qiladi. Ushbu usul guruhlariga yangi g'oyalarni o'ylash qiyin bo'lganda juda keng tarqalgan. Biroq, bu, ayniqsa, guruhning maqsadi ism yoki shior haqida o'ylash kerak bo'lgan vaziyatlarga mos keladi. ABCning aqliy hujumi xavfi shundaki, ishtirokchilar harflarga haddan tashqari e'tibor berishadi va shuning uchun ularning ijodiy fikrlashlari cheklangan. Axir "E" harfi bilan boshlanadigan "Y" dan ko'ra ko'proq so'zlar va g'oyalar mavjud, ammo ularning har biri uchun faqat bitta fikr kerak. Shuning uchun ABC aqliy hujumi sizning ishtirokchilaringizning fikrlash jarayonini sezilarli darajada cheklaydi, bu esa "aqliy hujum" atamasi orqasida yashiringan, filtrlanmagan, xom g'oyalar maqsadiga ziddir. Umuman aytganda, aqliy hujumga bag'ishlangan qoidalar qancha ko'p qo'llanilsa, asl g'oyalarni yaratish imkoniyati shunchalik kam bo'ladi.

Elektron aqliy hujum (Electronic brainstorming)

Raqamli yo'naltirilgan miya hujumi dasturiy ta'minot yoki shunga o'xshash muqobil platformalar bilan birgalikda eng yaxshi darajada ishlaydi. Bunday dasturlar o'z hamkasblarini birlashtirib, o'zlarining g'oyalarini qisqa postlar shaklida tezkor so'rovlarga imkon beradi. Qisqa vaqt ichida muddatlarni belgilashda ishchilar o'z-o'zidan reaksiya ko'rsatishga majbur. Elektron aqliy hujumi bilan yuzma-yuz muloqotlar ochiq suhbat madaniyatiga kirmaslik va foydalanish qulayligi uchun klassik aqliy hujumning asosiy afzalliklaridan voz kechish mumkin. Agar ishchi guruh a'zolari shunchaki uchrasha olmasalar, ko'pincha sizga bunday elektron aqliy hujumlar usullaridan foydalanishdan boshqa iloj qolmaydi.

Elektron aqliy hujumi ko'plab variantlarni, shu jumladan forum, jamoaviy platformalar yoki qo'shma hujjatlar yordamida ma'lumot almashishni o'z ichiga oladi. Videokonferensiya eng yaxshi klassik aqliy hujum usullariga mos keladi.

Skype va shu kabi boshqa video chat dasturlaridan foydalanish, aniq aqliy hujumlar sessiyalarining ta'sirini aks ettiradi. Bu real vaqtda miya hujumi usuli bo'lgani uchun, o'z-o'zidan ijod qilish uchun joy ham mavjud. Shunga qaramay, video suhbat yuzma-yuz muloqotni to'liq Alex F.Osborn asarlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan o'rnini bosa olmaydi, bu ikki ishtirokchi o'rtasida ruhiy to'siqni keltirib chiqarishi mumkin. Aqliy hujumning ushbu turida, asosan, videokonferensiyalar ko'proq sabab bo'lgan turli xil talablarga va texnik to'siqlarga dosh berishga majbur bo'lgan tashkil etuvchi - ulanishning buzilishi, uzatish sifati pastligi yoki texnik yaqinlikning yetishmasligi, bu faqat o'zaro bog'liqlikni o'zgartiradi.

Miya yozuvi (Brainwriting)

Klassik aqliy hujumdan farqli o'laroq, miya yozuvi jamoaviy dinamizmga zarar yetkazish uchun shaxsiy g'oyalarni yozishni va keyinchalik to'plashni o'z ichiga oladi. Belgilangan vaqtdan so'ng, tashkil etuvchi har bir kishi yozgan narsalarni to'playdi va yozuvlar ko'rib chiqiladi va baholanadi. G'oyalar ko'pincha noma'lum bo'lib qoladi, shuning uchun shaxsiy ma'lumotnoma berilmaydi. "Brainwriting" ba'zi ishtirokchilar til to'siqlari, shaxslar to'qnashuvi sababli klassik aqliy hujumga qodir bo'lmaganda yoki joyida uchrashuv o'tkazish imkoni bo'lmaganida (ishtirokchilar orasidagi masofa, belgilangan yig'ilish xonasi yo'q va hokazo) foydali usul hisoblanadi.

"Brainwriting"ning asosiy kuchli tomonlaridan biri bu ishtirokchini qolganlarning ta'siriga tushmaslik qobiliyatidir. Klassik aqliy hujum har bir g'oyani uni ifoda etgan kishiga aniq belgilashga qaratilgan. Shu bilan birga, guruh tuzilishiga va turli guruh dinamiklariga qarab, ushbu shakl sessiyaga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Shuning uchun bu usul uyatchan yoki o'z g'oyalariga ishonchsiz bo'lganlar uchun mashg'ulotlarga kirish eshigi bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, odatiy aqliy hujum sharoitida hech qachon paydo bo'lmaydigan g'oyalar ishtirokchilar tomonidan erkinroq ifoda etilib, jamoaning barcha a'zolariga teng imkoniyat yaratiladi.

"Brainwriting" yana bir muhim afzallikka ega - u barcha g'oyalarning to'liq hujjatlarini o'z ichiga oladi. Ahyon-ahyonda, hatto eng tajribali aqliy hujum o'tkazuvchilar ham g'oyalarni yozib olishni unutishlari mumkin, natijada ular munozarada adashishadi. "Brainwriting" har bir g'oyaning yozilishi va aqliy hujumda ishtirok etishiga ishonch hosil qiladi. Biroq, bu usulning zararli tomoni ham bor, ya'ni g'oyalar bir-biriga hech qanday aloqasi yo'qligi yoki sessiya davomida ular bir necha marta takrorlashlari mumkin (bir nechta javoblarni yuborish imkoniyati). Aqliy

hujum paytida yaxshi g'oyalar yanada rivojlanadi, "Brainwiring" paytida g'oyalar ancha uzoq davom etadigan jarayonda ko'plab bosqichlar orqali rivojlanadi.

Miya yurishi (Brainwalking)

Bu aqliy hujumning yana bir zamonaviy turidir, bu uning ishtirokchilarining ijodini faollashtiradi, chunki ular plakatlar va kichik yozuvlarni kelishilgan joyda (masalan, xona devorlaridan birida) alohida joylashtiradilar. Bunday yozuvlardan maqsad jamoa a'zolariga o'zlarining g'oyalarini yozishlariga imkon berishdir, natijada fikrlar to'plami paydo bo'ladi. "Brainwalking" odatda uchrashuvlar paytida yoki suhbat xonalarida ko'riladigan har qanday cheklov doirasidan uzilib qoladi va aksariyat hollarda ishtirokchining odatdagi ish kuni davomida o'z-o'zidan yozish va har qanday fikr bilan o'rtoqlashish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Shunga qaramay, bu atama tez-tez ishtirokchilar bilan integratsiyalashgan mashqlar va aql-idrok mashg'ulotlarini o'z ichiga olgan tasodifiy tadbirlar bilan bog'liq. Bu yerda hamma narsa ijod markazlarini faollashtiradigan, ham xotirani, ham idrok etish qobiliyatini yaxshilaydigan miya mashqlari bilan bog'liq. Bunday holda, bu atama aqliy hujum usulidan ko'ra ko'proq aqliy tayyorgarlikni sinovdan o'tkazadi. Shunga qaramay, kichik mashg'ulotlar bilan bunday mashg'ulotlarni birlashtirish mumkin. Zero, samarali harakat mashqlari ijodiy fikrlashni yaxshilaydi.

Bo'sh daftar usuli (Blank notebook method)

Daftarlar aqliy hujumlar uchun juda mos keladi, ularni to'liq bajarish uchun ancha vaqt talab etiladi. Ushbu aqliy hujum usulida sizga bo'sh daftar kerak bo'ladi, keyinchalik u sizning ish joyingizda odamdan odamga uzatiladi. Daftarni olgandan so'ng, hamkasblar o'zlarining fikrlarini yozib olishlari va allaqachon yozilgan g'oyalarga sharh berishlari mumkin (yoki yashirin yoki ism bilan). Ushbu turdagi aqliy hujum va miya yozishining ijobiy tomonlarini birlashtiradi. Xuddi ikkinchisida bo'lgani kabi, bu daftar ham guruhlariga tegishli g'oyalarni muhokama qilish va tanlash imkoniyatini beradigan g'oyalar portfelini shakllantirishga mo'ljallangan.

Daftar uchun siz ba'zi qoidalarini belgilashingiz tavsiya etiladi. Ko'pincha har bir ishtirokchi uchun vaqt chegarasi belgilanadi (masalan, bir kun), undan keyin daftar keyingi odamga uzatiladi. Bundan tashqari, har bir kishi qancha yozishi mumkinligini belgilashga arziydi (har bir kishiga bitta sahifa eng keng tarqalgan chegara). Bu nafaqat g'oyalarni

yaxshiroq ko‘rib chiqishga imkon beradi, balki ko‘proq ijodiy ishchilar kam ijodkorlarning e‘tiborini o‘g‘iraydigan vaziyatni oldini oladi.

3.1-jadval

Aqliy hujum turlarining umumiy tahlili

Aqliy hujum turlari	Afzalliklari	Kamchiliklari	Mos kelishi
Klassik aqliy hujum	Juda ijodiy va o‘z-o‘zidan, samarali, o‘yinli elementlar, yaxshi jamoa tuzish usuli	Vaqt va joyga juda bog‘liq, tashkil etuvchi tomonidan uzoq muddatli tayyorgarlik, muvaffaqiyatsizlik ehtimoli katta, hech qanday tarzda noma‘lum emas, fikr egalari juda ta’sirli bo‘lib qolishi mumkin	Murakkab ierarxik tuzilmalarga ega bo‘lmagan kichik va o‘rta guruhlar
Elektron aqliy hujum	Vaqt yoki makonga bog‘liq bo‘lmagan holda, ixtiyoriy ravishda maxfiylik, introvertlar uchun osonroq, taraqqiyotni qayd etish ancha oson	O‘z-o‘zidan paydo bo‘lish uchun kam joy, g‘oyalarning tartibsiz oqimi, texnik to‘siqlar	guruhlar, xalqaro guruhlar
Miya yozishi	Vaqt yoki makondan mustaqil ravishda, ixtiyoriy ravishda maxfiylik, introvertlar uchun osonroq, taraqqiyotni qayd etish ancha oson, uzoq muddatli loyihalar uchun ham mos keladi	O‘z-o‘zidan paydo bo‘lish uchun kamroq joy, g‘oyalarning tartibsiz oqimi, g‘oyalar bir-biriga hech qanday aloqasi yo‘q, bir kishiga bir nechta javob berish mumkin	O‘rta va katta guruhlar, uyatchan ishtirokchilar bilan guruhlar, xalqaro guruhlar
Miya yurishi	Joyga bog‘liq, o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan joy kam, g‘oyalarning tartibsiz oqimi, uzoq loyiha muddati, nisbatan yuqori rejalashtirish xarajatlari, yuqori moddiy xarajatlar	O‘rta va katta guruhlar, uyatchan ishtirokchilar bilan guruhlar, xalqaro guruhlar Ijodiy sohalar Vizual tarkibiy qismlarga ega loyihalar (dizayn, kompaniyaning logotipi va boshqalar)	
Bo‘sh daftar usuli	O‘rta va katta guruhlar, uyatchan ishtirokchilar bilan guruhlar, xalqaro guruhlar Ijodiy sohalar Vizual tarkibiy qismlarga ega loyihalar (dizayn, kompaniyaning logotipi va boshqalar)		

Katta guruhlar, uyatchan ishtirokchilar bilan Vaqtdan mustaqil, ixtiyoriy noma'lumlik, introvertlar uchun osonroq, taraqqiyotni qayd etish ancha oson, shuningdek uzoq muddatli loyihalar uchun mos keladi, g'oyalar bir-biri bilan munosabatda bo'lishi mumkin, turli xil fikrlar portfeli, ish kunida osonlikcha birlashtiriladi (diagrammalar, eskizlar)

Vaqtdan mustaqil, ixtiyoriy noma'lumlik, introvertlar uchun osonroq, taraqqiyotni qayd etish ancha oson, shuningdek uzoq muddatli loyihalar uchun mos keladi, g'oyalar bir-biri bilan munosabatda bo'lishi mumkin, turli xil fikrlar portfeli, ish kunida osonlikcha birlashtiriladi (diagrammalar, eskizlar) Joydan mustaqil, o'zo'zidan paydo bo'ladigan joy kamroq, g'oyalarning tartibsiz oqimi, loyihalarning uzoq muddatlari Alex F.Osborn asarlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan

3.4. Aqliy hujum uchun samarali usullar

Turli xil o'quv uslublari va turli xil ish oqimlari afzalliklari bo'lgani kabi, har birimiz o'zimizga eng mos keladigan aqliy hujum usuliga egamiz. Siz qanchalik tajribali bo'lishingizdan qat'iy nazar, ushbu turli xil aqliy hujum vositalarini ochishga, har birining afzalliklari va kamchiliklarini bilib olishga va o'zingiz va jamoangiz uchun texnikani tanlashga yordam beradi.

3.5-rasm. Aqliy hujum uchun samarali usullar

Pinbord kartalari usuli (Pinboarda Cards)

Garchi bu usul raqamlashtirish, zamonaviy va murakkab platformalar davrida eskirgan deb hisoblansa-da, odatda bu eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Bu yerda g'oyalar oddiygina devorga bog'langan va kartalar, markerlar va pinlar yordamida ishlanadi.

Bu usulda ishtirokchilar uchun turli xil savollar, vazifalar va maqsadlar ko'rsatilgan. Shunday qilib, hamma nimaga erishish kerakligini va umumiy mavzu nimani anglatishini aniq anglaydi. Jarayon davomida har bir kishi devorga bir fikr yoki savolga javob beradi.

Agar allaqachon Mualliflar tomonidan tayyorlangan mavzu bilan post bo'lsa, unda ularni guruhlash yaxshi. Boshqa postlarni boshqalarga qo'shish ham mumkin. Shunday qilib, ishtirokchilar ushbu xabarning mavzusi doirasida bir oz "chuqurlik" yaratishi mumkin. Ushbu aqliy hujum usuli uchun siz ushbu klassik usul natijalarini yanada yaxshilash yoki agar ular o'zlarining fikrlariga yopishib qolsalar

yoki yetarli g'oyalar qamrab olinmagan bo'lsa, jarayonni rag'batlantirish uchun qo'shimcha usullardan foydalanishingiz mumkin.

Hemingway daftarchasi - g'oyalarni to'plash usuli ***(Hemingway Notebook – collect ideas)***

Ayniqsa, juda ijodiy odamlar g'oyalarni topish oson emasligini, ba'zilar esa o'z-o'zidan paydo bo'lishini bilishadi. G'oyalar tashqi ta'sirlardan va yangi impulslardan kelib chiqadi. Bu yurish, dush, plyajda yotish yoki odamlar bilan suhbatlashish bo'lishi mumkin. Asosan, bu har doim yoningizda daftar yoki bloknot borligidan boshqa narsa emas. Shu bilan birga, muammolar, yechimlar, aniq g'oyalar, jarayonlar, biznes modellari yoki boshqa ma'lumotlarni bir-biridan ajratish muhimdir. Ammo siz ushbu yozuvlarni muntazam ravishda ko'rib chiqishingiz va ularni o'qishingiz yoki ularni ijro etishingiz kerak. Uni har kimga ajratish va qayta ishlashning o'ziga xos usuli bor. Shunga qaramay, shuni ta'kidlash kerakki, g'oyalar doimiy ravishda yozib borilishi va shuningdek muntazam ravishda o'qib borilishi kerak, chunki bu usul har bir kishi uchun ishlatilishi mumkin va u bir jamoaga yoki bir marta bog'lanmagan, shuning uchun ishlashga vaqt ajratish tavsiya etiladi.

Disney usuli (Disney method)

Disney usuli, shuningdek Uolt Disney strategiyasi deb ham ataladi, bu ijodkorlik usuli, shuningdek, qaror qabul qilishda yordam beradi. Hamma narsa rol o'ynash bilan amalga oshiriladi. Usul 3-4 kishilik guruh bilan yaxshi ishlaydi, lekin uni yakka o'zi amalga oshirish mumkin. Turli xil rollar mavjud bo'lib, ushbu rolda o'zini o'zi yashaydi.

Xayolparast

Xayolparastning rolida "realistik" yoki "amaliy" fikrlarni erkin o'ylashga harakat qiladi. Maqsad iloji boricha ijodiy g'oyalarni topishdir. Xayolparast, boshqacha aytganda, g'ayratli, ehtirosli va maqsadga muvofiqligi haqida o'ylamaydi.

Realist va bajaruvchi

Realistning eng muhim elementlari mavzularga nisbatan neytrallik bilan bir qatorda xolislikdir. Xarajatlarni, g'oyalarning texnik va amaliy maqsadga muvofiqligini, shuningdek, jamoalarning imkoniyatlarini, texnologiyalarni va ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vaqtni

hisobga olish kerak. Realist har bir g'oyani "Men hamma narsani tushunaman" shiori asosida amalga oshirishi kerak.

Tanqidchi

Tanqidchining tanqidiy savollari, eng yomon ssenariylar, yoqimsiz haqiqatlar, narsalarni tortish va zaif tomonlarini topish. Bu tanqidchining Mualliflar tomonidan tayyorlangan roli. G'oyalarni diqqat bilan tortib, amalga oshirish yoki muvaffaqiyatsizlikka olib keladigan zaif tomonlarni topish muhimdir.

Neytral

Neytral usul aslida 3 ta rolik (1-3) bilan ham ishlaydi, ammo begonaning neytral pozitsiyasini egallash tavsiya etiladi. Bu xaridor, yetkazib beruvchi, matbuot yoki tashqaridan kuzatadigan boshqa shaxs bo'lishi mumkin.

Ko'pgina hollarda, mavjud g'oya yoki allaqachon topilgan oz sonli g'oyalarni samarali muhokama qilish mumkin. Rollarning o'zgarishini soddalashtirish uchun maskirovka, turli xil stullar yoki shuningdek, odamlar o'zlarini rolga osonroq kiritishlari mumkin bo'lgan maxsus "fikrlash burchaklari" kabi kichik vositalar. Bu, ayniqsa, boshqa rolga o'tmaslik, realistning tanqidchini aldab o'tishi yoki aksincha yolg'on gapirish uchun juda muhimdir.

De Bono 6 shlyapalar usuli (De Bono 6 hats thinking)

Aqliy hujumda g'oyalarni samarali shakllantirish va hosil bo'lgan g'oyalarni texnik-iqtisodiy tekshirish uchun yana bir usul - bu De Bono 6 shlyapalar usuli. Metod butunlay yangi g'oyalarni olish uchun unchalik mos emas, shuning uchun uni yanada ko'proq ishlab chiqilishi kerak bo'lgan bir nechta g'oyalar uchun Disney usuli kabi foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu usul biznes-rejani keyingi bosqichga ko'tarish yoki mahsulot yoki xizmatni takomillashtirish ustida ishlash uchun ham juda mos keladi.

6 ta shlyapa usuli juda ko'rgazmali. Turli xildagi ranglar har xil xususiyatga ega. Vazifalarni taqsimlash uchun kartochkalar, qog'oz shlyapalar yoki boshqa vositalardan foydalanish kerak. Usul 6 xil roldan iborat bo'lganligi sababli, aylanada ham 6 kishi bo'lishi kerak va hamma "shlyapa" oladi. Keyin topshiriq yoki g'oya har kimga ko'rinadigan flipchart yoki doskaga yozib qo'yiladi.

De Bono 6 shlyapalarining mazmuni

1. Moviy shlyapa – moderator. U har xil ishtirokchilarning hamma gaplarini umumlashtiradi, muhim ma'lumotlarni yozib oladi, shuningdek guruh kotibi bo'lishi kerak.

2. Sariq shlyapa – optimist. U doimiy ravishda g'oya uchun "Eng yaxshi ish" haqida o'ylaydi. Bu barcha sohalarda maqbul narsani ko'rish haqida. Vaqt jadvallari, byudjet, bozor, mijozlarning talablari va h.k. bo'lishidan qat'iy nazar, u hamma narsa yaxshi deb o'ylaydi.

3. Yashil shlyapa – o'ylovchi. U keng ma'noda o'ylashi mumkin. U boshqalarga o'xshab chuqurlashish o'rniga yangi g'oyalarni olib kirishga va "keng" fikrlashga e'tibor qaratishi kerak. Shunday qilib, u g'oyaning tafsilotlariga e'tibor berish o'rniga tashqi g'oyalarni boshqa g'oya bilan birlashtiradi.

4. Qizil shlyapa – hissiyotga beriluvchi. U hissiy bo'lishi mumkin, uning didi, hissiyotlari va hissiyotlari va shaxsiy fikrlari birinchi o'rinda turadi.

5. Qora shlyapa – tanqidchi. Ular zaif tomonlarni topadi, ayniqsa zaif tomonlarga murojaat qiladi, g'oyalarni tanqid qiladi va salbiy tomonlarini ham ta'kidlaydi. "Eng yomon vaziyat ssenariysi" bu uning dunyosi va u uchun hamma noto'g'ri bo'lishi mumkin bo'lgan hamma narsa noto'g'ri bo'ladi.

6. Oq shlyapa – obyektiv. Raqamlar, faktlar, bilimlar, jadvallar, dalillar, statistika va hisob-kitoblar obyektivlarning diqqat markazida bo'ladi. Ushbu shaxs betaraf bo'lishi kerak va ushbu shaxsning barcha qarorlari ishonchli bo'lishi kerak va agar kerak bo'lsa raqamlar va dalillarni talab qilish kerak.

Biznes model usuli (Business Model Canvas)

Bu usul ko'pincha biznes-rejaning g'oyalari va jihatlarini ishlab chiqish uchun tavsiya etiladi. Muvaffaqiyatli biznes uchun asosiy elementlar ko'rib chiqiladi. Aleksandr Ostervalder ushbu modelni ishlab chiqdi va u innovatsion biznes g'oyalarni yaratish yoki mavjud biznes

modelini qayta ko'rib chiqish uchun eng muvaffaqiyatli modellardan biriga aylandi.

Bu usulning eng muhim elementlari quyidagilar:

1. Asosiy hamkorlar: Qaysi sheriklar bo'lishi mumkin?
2. Asosiy faoliyat: Biznes modelini amalga oshirish uchun qanday harakatlar qilinishi kerak?
3. Qiymat taklifi: mijozlar mahsulot va xizmatlarni sotib olishlari uchun qanday foyda va afzalliklari bor?
4. Mijozlar bilan o'zaro munosabatlar: Maqsadli mijozlarni qanday yutish va ushlab qolish mumkin?
5. Mijozlar segmentlari: Maqsadli mijozlar va maqsadli mijozlar guruhlar qanday?
6. Asosiy manbalar: Qaysi manbalar kerak va qaysi biri ajralmas?
7. Sotish va aloqa kanallari: kerakli maqsadli mijozlar bilan aloqa qilish uchun qaysi kanallardan foydalaniladi? Mahsulotlar va xizmatlar qanday sotiladi?
8. Narxlar tarkibi: xarajatlarning eng muhim omillari qaysi va biznes modeli qaysi xarajatlarsiz ishlamaydi?
9. Daromadlar oqimlari: pul qanday hosil bo'ladi? Biznes modeli qayerdan kelib chiqqan?

G'oyalarni vizualizatsiya qilish usuli (Business Mind Maps & Mind Maps for the visualization of ideas)

Aqliy xaritalar (Mind Maps) fikrlarni tasavvur qilish bilan bir qatorda aqliy hujumni samarali usulidir. G'oyalar tizimli ravishda taqdim etiladi, bu g'oyalar oqimini rag'batlantirishga yordam beradi. Eng sodda jarayon - bu asosiy atamani yoki muammoni flipchart, doska yoki oddiygina qog'oz o'rtasida yozishdir. Fikrlaringizning yangi yo'nalishlari uchun har doim yangi shoxchalar mavjud, shunda siz o'z fikrlaringizni izdan chiqmasdan farqlay olasiz, ammo chuqurroq tushunishingiz mumkin. Pastki toifalarni yaxshiroq aniqlash uchun turli xil ranglardan foydalanish tavsiya etiladi.

Mashqlar

1. “So‘zlovchi vaqt bombasi” (Talking Timebomb)

Bu mashqning eng yaxshi jihatlaridan biri shundaki, sizga deyarli hech qanday tayyorgarlik vaqti kerak emas. Bundan tashqari, bu mashq bilan deyarli har qanday auditoriyani qamrab olish mumkin. Birinchidan, o‘qituvchi mavzu yoki g‘oyani taklif qiladi. Keyin o‘qituvchi musiqani boshlaydi va o‘quvchilar ushbu mavzu uchun iloji boricha ko‘proq so‘zlarni o‘ylab topishlari kerak.

Qaysidir ishtirokchi to‘p bilan boshlaydi. So‘zni aytgandan keyin to‘pni boshqa talabaga beradi. Bu jarayon davom etaveradi, ammo ular allaqachon aytilgan narsani takrorlay olmaydilar. Musiqa to‘xtaganda, kim to‘pni ushlab tursa, yutqazadi. Va jazo har qanday bo‘lishi mumkin. Masalan, ular o‘qituvchi bergan mavzu haqida bir daqiqa gapirishlari kerak.

Mashq uchun namunaviy mavzular:

- mamlakat iqtisodiyotiga oid atamalar;
- rivojlangan davlatlar va shaharlar;
- pul birliklari;
- mashhur xalqaro brendlar.

2. Bosqinchi sotuvchi (Pushy Salesperson)

Talabalar hech kim sotib olishni xohlamaydigan narsalarni bosqinchi (majburlovchi) sotuvchiga o‘xshab sotishlari kerak. Bunda talabalar o‘sha mahsulot yoki xizmatning o‘ziga xos xususiyatlari noodatiy fikrlar va usullar bilan yoritib berishlari maqsadga muvofiq.

Mashqda foydalanish uchun namunaviy mahsulotlar:

- o‘tmas pichoq;
- audiokasseta;
- singan soyabon;
- eskirgan qatiq;
- eski kalendar;
- Pentium IV kompyuteri.

3. Soʻzlar zanjiri (Shritori)

Shritori - bu mashhur yapon oʻyini boʻlib, unda oʻyinchilar avvalgi soʻzning oxirgi harfidan boshlanadigan soʻzni oʻylashlari kerak. Ikki kishidan iborat guruhda oʻyinchilar uzun soʻzlar zanjiri yaratish orqali soʻz boyligini va imlosini yaxshilashlari mumkin. Bunda maʼlum bir sohaga yoki tanlab olingan muammoga doir soʻzlar boʻyicha chegara olinsa oʻyin samarasi yanada ortadi.

Agar siz boshqa bir-biriga bogʻlaydigan soʻzlarni oʻylab topolmasangiz, unda siz oʻyinni yoʻqotasiz.

Adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T. Oʻzbekiston, 2019
2. Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T. Oʻzbekiston. NMIU, 2017 – 488 b.
3. Taʼlim toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi qonuni. – T. 2020 yil 23 sentabr. OʻRQ-637.
4. Oʻqituvchi va murabbiylar – Yangi Oʻzbekistonni barpo etishda kata kuch, tayanch va suyanchimizdir. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 1-oktabrdagi maʼruzasi. Xalq soʻzi.2020 yil 1 oktabr. № 207 son.
5. Ilm fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisidagi prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 29 oktabrdagi Farmoni.
6. Prezident Sh.M.Mirziyoyev raisligidagi 30 oktabr (2020 yil) mamlakatimizda taʼlim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi boʻyicha videoselektor yigʻilishi materiallari. Xalq soʻzi. 2020 yil 31 oktabr. № 230 son.
7. Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davrida taʼlim-tarbiya va ilm-fan sohasi rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi Prezidentimizning 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108 sonli farmoni.
8. Oʻzbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi. 2020 yil 30 dekabr.
9. Peter Holins, Mental Models, 30 Thinking Tools that Separate the Average From the Exceptional Improved Decision-Making, Logical Analysis, and Problem-Solving. Peter Hollins 2019.
10. Jumanova S.B. Kreativ fikrlash. – «Издательский решения» 2020. ISBN 978-5-00-511636-9
11. Критическое мышление: Анализируй, сомневайся, формируй свое

мнение/Том Чатфилд; Пер.с англо – М.:Альпина Паблишер, 2019. -328с.

Axborot manbalari:

12. www.ziynet.uz
13. www.edu.uz.
14. www.google.uz.

4-MAVZU: NOODATIY FIKRLASH ASOSLARI (QUTICHADAN TASHQARIDA FIKRASH)

Reja:

1. Noodatiy fikrlashning mazmun va mohiyati
2. Noodatiy fikrlashni shakllantirish
3. Noodatiy fikrlash usullari

“Tafakkur – bu insonning asosiy imkoniyat manbaidir. Kelajagimizning qanday bo‘lishi bizning tafakkurimizga butunlay bog‘liq”.

Edvard de Bono

Tayanch so‘zlar: nostandart tafakkur, noodatiy fikrlar, mantiqiy fikrlash, ijodiy fikrlash, kreativ fikrlash, noodatiy fikrlash usullari

Noodatiy fikrlash – bu ixtiyoriy vaziyatdan chiqish maqsadida noizchil va hatto, mantiqsiz usullar orqali noodatiy, yangi, eng ma‘qul qarorlarni izlab topa olish qobiliyatidir.

Noodatiy fikrlash kishilarning odatiy fikrlash tarziga nomuvofiq, g‘ayrioddiy fikrlashi, noodatiy usul va yo‘llar bilan xulosalar chiqarishi;

vaziyatdan chiqishning hatto g‘ayritabiiy, ammo eng maqbul muqobillarini izlab topish, masalalar va hodisalarga nisbatan har doim ijodiy fikrlash orqali yondashish ko‘nikmasidir. Har qanday kuchli iqtidor egasi noodatiy fikrlash tarzi mahsulidir. Odatiy fikrlash tarzi kishidagi iqtidorni yuzaga chiqarmaydi, uning ijodiy, intellektual va ilmiy salohiyatining rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Vaholanki, agar ularda noodatiy fikrlash ko'nikmasi shakllantirilganda, bu boradagi ularning intilishlari rag'batlantirilganda mamlakatimizdagi fan va texnologiyalar sohasi bugungidan ko'ra ancha yuksak marralarni zabt etgan bo'lardi.

Xush, ilm-fan rivoji uchun shunchalik ahamiyatli bo'lgan "noodatiy fikrlash" deganda nimani tushunish kerak? U qanday namoyon bo'ladi va qanday natijalarga olib keladi?

Bir kuni universitet o'qituvchisi Qirollik Akademiyasi Prezidenti, fizika fani bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori Ernest Rezerfordga bir masalada yordam so'rab, murojaat qiladi. U bir talabasiga fizika fanidan imtihonda eng past baho qo'yimoqchi ekanligini, lekin talaba bu bahoga rozi emasligini aytadi. Ularning har ikkisi - o'qituvchi ham, talaba ham uchinchi bir xolis shaxsning fikrini so'rab ko'rishga rozi bo'ladilar. Ular bu masalada Rezerfordni tanlaydilar. Imtihonda berilgan savol quyidagicha edi: "Barometr - yordamida bino balandligini qanday o'lchash mumkinligini tushuntiring".

Talabaning javobi quyidagicha edi: "Barometr bilan binoning tomiga chiqib, uzun arqonga barometrni bog'lab, pastga tushirish, so'ngra uni yana yuqoriga ko'tarib, arqon uzunligini o'lchash lozim, shu uzunlik binoning balandligini ko'rsatadi".

Rezerford talabadan javobni yana bir marta takrorlashni so'raydi. Tayyorgarlik uchun olti daqiqa ajratib, talabaga javobda fizik qonuniyatlar aks etishi lozimligini tayinlaydi. Besh daqiqa o'tgunga qadar talaba imtihon varaqasiga hech narsa yozmaydi. Rezerford talabadan imtihonni topshirish yoki topshirmasligini so'raganida, u muammoning bir necha echimi borligini, shunchaki ular orasidan eng maqbulini tanlayotganini aytadi. Qiziqishi ortgan Rezerford vaqt tugamagan bo'lsa ham, yosh talabadan javobni aytishini so'raydi. Savolga endi quyidagicha javob yangraydi:

"Barometr bilan binoning tomiga chiqing va barometrni ipga bog'lab, pastga tashlang, tushish vaqtini belgilab qo'ying. So'ngra formuladan foydalanib, bino balandligini hisoblash mumkin". Shunda Rezerford o'z hamkasbi - o'qituvchidan javobning ma'qul bo'lgan yoki ma'qul emasligini so'raydi. O'qituvchi javob qoniqarli ekanligini tan oladi. Biroq, talaba bir necha javobni bilishini eslatadi va qolgan javoblarni ham aytishini so'raydilar.

Barometr yordamida bino balandligini o'lchashning bir necha usullari mavjud, - deb boshlaydi talaba.

- Masalan, quyoshli kunda ko'chaga chiqib, barometr va uning soyasi uzunligini o'lchash mumkin. Xuddi shuningdek, bino soyasining uzunligi ham o'lchanadi. So'ng oddiy proporsiyani hisoblash orqali binoning uzunligini ham topish mumkin.

Yomon emas, - dedi Rezerford. – Boshqa usullar ham bormi?

Ha. Juda oddiy usul bor, bu usulning sizlarga yoqib qolishigi ishonchim komil. Barometrni qo'lingizga olib, zinadan ko'tarilasiz. Barometrni devorga tirab, belgilar qo'yib borasiz. Belgilar sonini barometr uzunligiga ko'paytirib, bino balandligini bilib olasiz. Bu eng ajoyib usul.

Agar sal murakkabroq usulni hohlasangiz, - davom ettirdi u, - barometrga ip bog'lab, uni mayatnik kabi tebratib, binoning asosi va tomida gravitatsion kattalikni aniqlang. Bu kattaliklar orasidagi tafovutdan bino balandligini hisoblash mumkin.

Nihoyat, - yakunladi talaba, - boshqa ko'pgina usullar orasida bu masalaning eng ma'qul echimi shuki, barometrni olib, bino boshqaruvchisini topish va unga: "Janob boshqaruvchi, menda g'aroyib barometr bor. Shu binoning balandligini aytsangiz, uni sizga tuhfa qilaman" – deb aytish.

Shunda Rezerford talabadan nahotki bu masalaning hammaga ma'lum bo'lgan echimini bilmasligini so'radi. U echimni bilishini tan oldi, biroq o'quvchilarga o'z fikrlash usullarini ro'kach qilib, shunday fikrlashga majburlovchi o'qituvchilardan zerikkanini, shuning uchun o'zi to'g'ri deb hisoblagan javobni aytganligini ta'kidladi.

(Bu talaba buyuk fizik, Nobel mukofoti sovrindori Nils Bor (1885-1962) edi.)

Er yuzasining aksariyat aholisi vakillari mantiqiy fikr yuritadilar. Bu oddiy hayotiy formula: "Hamma shunday qilyaptimi, demak, men ham shunday qilishim kerak", - degan fikrni anglatadi.

Obrazli fikrlashni xuddi vertolyotdagi insonning yuqoridan turib, poezdning parovozidan to oxirgi vagonigacha, hatto, undan uzoqroqni ham kuzatayotgani kabi tasavvur etish mumkin. Ya'ni masala yuqoriroq, teranroq, kengroq, uzoqroq va har tomondan kuzatiladi.

Noodatiy fikrlay olish yaxshi xislat. Noodatiy fikrlovchi kishi o'z faoliyatida va oldingi natijalarda ham qoqilmaydi. U o'zigacha hech kim qo'llamagan,

boshqalar uchun g'ayrioddiy va mantiqsiz tuyulgan yangicha yo'llar, metodlar va usullarni qidiradi. U faqat kelajak bilan yashaydi.

Butun taraqqiyot shunday kishilar hisobiga amalga oshadi. Biroq bunday kishilar kamdan-kam uchraydi.

• **Barcha insonlar ma'lum ma'noda noodatiy fikrlashga ega bo'lishi mumkin:**

- ijodiy fikrlash;
- kreativ fikrlash;
- yangi g'oyalarni o'ylab topish imkoniyati;
- noodatiy qarorlarni o'ylab topish qobiliyati.

Diqqat! O'z kelajagingiz haqida bir lahza o'ylab ko'ring. Sizni o'z kelajagingiz qanday bo'lishi o'ylantiryaptimi? O'ziga xos hayot kechirishshni istaysizmi? "Boshqalardan farqli" daromad egasi bo'lishni hohlaysizmi? Noyob kasb egasi bo'lmoqchimisiz? Ko'pchilik erisha olmagan narsalarga erishish istagidamisiz? Demak, sizning tafakkuringiz siz o'zib ketmoqchi bo'lgan kishilarning standart, o'rtamiyona fikrlaridan farq qilmog'i zarur.

A.Eynshteyn faraz qilish ko'nikmasini bilimdonlikning eng yuqori pog'onasi deb hisoblagan, farazsiz yangilik ochish mumkin emasligiga ishongan.

Bas, balki oramizda insoniyat hayotini o'zgartirishga qodir, buyuk nimadir yaratish istagida bo'lgan kishilar bordir. Hech bo'lmaganda, o'z hayotini yengillashtirishga uringan kishilar bo'lishi mumkin. Unday bo'lsa, buyuk olim xitoblariga amal qilib, darhol o'z tasavvuringizni rivojlantirishga kirishishingiz darkor.

Xo'sh, nima uchun biz noodatiy tafakkurni shakllantirishimiz zarur?
Buning sabablarini sanab o'tishimiz mumkin:

- siz tanlagan har bir ishda muvaffaqiyatga erishish;

- hayotingiz yorqin, qiziqarli va baxtga yo‘g‘rilgan bo‘lishi;

- ko‘pchilik topa olmagan ixtiyoriy mushkul vaziyatdan chiqish yo‘lini topa olish (Stiven Spilbergning “Indiana Jons” filmini eslang, unda

bosh qahramon unga xiyonat qilganlarida ham yoki qo‘lga tushganida ham doim g‘olib chiquvchi sayohatchi va arxeolog bo‘ladi);

- doimo hazil-mutoyiba qilish va doim ko‘tarinki kayfiyatda yurish imkoniga ega bo‘lish;

- osongina millioner bo‘lish, mayli, hech bo‘lmasa, shunchaki, boy bo‘lish(hayotda, asosan, boy kishilar noodatiy fikr yuritadilar);

- yaqin do‘stlar qurshovida bo‘lish (xuddi shunday noodatiy tafakkur bilan). Menimcha, odamlar kimning noodatiy tafakkuri kuchli bo‘lsa, shunday kishilarga intiladilar.

“Kompaniya menejerlarining yangi g‘oyalarni kashf etish qobiliyatiga kompaniyaning kelgusidagi taraqqiyoti bevosita bog‘liq”.

Kreativ va noodatiy tafakkur dolzarb bo‘lgan kishilar ro‘yxati tuzilsa, ularga kimlar kiradi:

kompaniyalar rahbarlari va top-menejerlari (agar ular tijoratning jadal rivojlanishi va yuqori daromad keltirishini hohlasalar);

o‘z tijoratlarining doimo peshqadam bo‘lishini istovchi tijorat egalari, tijorat taraqqiyotiga ma’sul direktorlar, kompaniyaning artdirektorlari;

o‘z faoliyatlari davomida agar ular uchun jamoaviy kreativlikni boshqarishni o‘rganish muhim bo‘lsa, jamoaviy muzokaralar (yig‘ilishlar, kengashlar, munozaralar, aqliy hujum tadbirlari) o‘tkazish imkoniyatidan foydalanuvchi mutaxassis va rahbar xodimlar;

reklama agentliklarida tijorat bo‘yicha mutaxassis-frilanser bo‘lib faoliyat yurituvchi yoki ish boshlamoqchi bo‘lgan mutaxassislar va “erkin ijodkorlar” (maslahatchilar, trenerlar, koucherlar, jurnalistlar va boshqa mutaxassislar);

- ixtiyoriy ijod va “ijodga yaqin” kasb vakillari;

- yanada oqilroq, samaraliroq va “ildamroq”ishlashni hohlovchilar;

- yanada oson va jo‘shqinroq ish yuritishni istovchilar;

- kasbiy faoliyatda va mansabda tez yuksalish va martabaga erishish istagida bo‘lganlar;
- shaxsiy hayotida kreativ usullarni qo‘llashni hohlaganlar;
- yangiliklardan hayratga tushadigan va boshqalarni ham hayratga solishni istovchi kishilar va boshqalar
- ixtiyoriy ijod va “ijodga yaqin” kasb vakillari;
- yanada oqilroq, samaraliroq va “ildamroq”ishlashni hohlovchilar;
- yanada oson va jo‘shqinroq ish yuritishni istovchilar;
- kasbiy faoliyatda va mansabda tez yuksalish va martabaga erishish istagida bo‘lganlar;
- shaxsiy hayotida kreativ usullarni qo‘llashni hohlaganlar;
- yangiliklardan hayratga tushadigan va boshqalarni ham hayratga solishni istovchi kishilar va boshqalar

G‘oyaning kelishi – tahdid qilmagan ohangda “Nima uchun” degan savolni berishga mo‘ljallangan uskunadir: nima uchun nimadir sodir bo‘ladi, nima uchun bu qanday qilinsa, shunday qilinadi. Natija “Nima uchun?” degan savolga yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga olib keluvchi eng aniq javob tushunchasi hisoblanadi. Maqsad nafaqat muammoli vaziyatlarda, balki har qanday holatda bahsga kirishish imkoniga ega bo‘lishdan iborat.

Zamonamiz tadqiqotchilar tomonidan allaqachon o‘rganib chiqilgan noodatiy tafakkur rivojiga oid bir necha fikrlar mavjud.

Masalan, hozirda quyidagilar mashhur:


- yuqori intellekt ijodiy fikrlashga teng qobiliyat emas;
- ijodiy faoliyat miyaning faqat o‘ng yarim sharigagina bog‘liq emas, ijod jarayonida har ikki yarim sharlar zarur va muhim.

Olimlar agar miyangiz bo‘lsa, siz noodatiy fikrlashni o‘rgana olasiz, deb ta’kidlaydilar. Faqat maxsus vositalarni ishga solish zarur (har bir ishning amallarni bajarish predmeti mavjud, ya’ni duradgorda uskunalar solingan quti, shifokorda tibbiyot uskunolari bo‘ladi). Turli tadqiqotchilar noodatiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda bu uskunalar to‘plamini turlicha talqin qiladilar.

Qadimgi Yunonistonda evristik savollar metodi qoʻllangan. Kashfiyot masalalarini echish nazariyasi muallifi Genrix Saulovich Altshuller fikrni odatdagi chegaradan chiqarishning 76 usulini yaratgan.

VVD&O reklama agentligi ishchisi Aleks Osborn barchaga tanish boʻlgan “aqliy hujum” metodini yaratar ekan, insonlar tanqiddan qoʻrqmay, miyasiga kelgan barcha fikrni aytsalar, foydali qaror paydo boʻlishi mumkinligini aytadi.

Edvard de Bononing noodatiy fikrlashga oid beshta qoidasi



Edvard de Bono tomonidan yozilgan kitoblarni oʻqib koʻring. Albatta, ushbu maqolada noodatiy fikrlashni mashq qilish metodlari haqida koʻp narsa yozish mushkul. Biroq, Edvard de Bononing bir qolipdagi va fikrlashning mavjud modellarini chetlab oʻtishga oid beshta qoidasini sanab oʻtish mumkin:

sodir boʻlayotgan hodisalarga nisbatan shubhali qarash (nima uchun mijozlar sotib olishadi, sotuvchilar esa – sotishadi? Balki, aksincha boʻlishi kerakdir? Insonlar shu orqali oʻz-oʻziga xizmat qilinadigan doʻkonlarni oʻylab topishgan);

-bir nechta turlicha usullarni umumlashtirish (har doim masala echimining variantlari bir qancha boʻladi, shunchaki ularni koʻrib chiqish zarur va buni “sinchiklab” bajarish kerak);

-yangi gʻoyalardan magʻrurlanish va uddalashga intilish lozim (hech narsa chiqmaydi, deb kim aytdi? Echim har doim topiladi! Ijodkor insonlar har doim tavakkalga qoʻl uradilar);

-chekinish mumkin bo'lgan yangi kirish nuqtalarini topish (agar daryo suvini plotina orqali chegaralab qo'yilsa, suv boshqa yo'l topishga majbur bo'ladi. Aytganday, boshqa kirish nuqtasini hazil-mutoyiba orqali ajoyib tarzda tasvirlash mumkin).

Edvard de Bono onga oid "telefon liniyasi" deb ataluvchi g'aroyib usulni o'ylab topgan. Aytishlaricha, u tez-tez ta'tilga chiqib, musiqa tinglar, qushlarning sayrashini eshitar, bog'dorchilik bilan shug'ullanar ekan. Muhimi, ta'til paytida hech narsaga diqqatini qaratmaslik. Miya dam olayotganida, ong muntazam xabarlarni jo'natib turadi.

Ular,odatda, noodatiy xabarlardan iborat. Shu tariqa de Bono reklama aksiyalari va matnlarni "yaratadi". Nima uchundir menga siz bilan biz ham shu usulni osongina ishlata olishimiz mumkindek tuyulyapti.

1.Tasavvuringizni shakllantiring (barcha his qilish organlaringizni ishga soling), bir xil qolipdagi fikrlardan qoching. Aynan ular bizning fikrlarimiz ko'rinishini belgilashini eslaysizmi?

2.Miyangizni "oziqlantiring": Fantastikaga oid yaxshi adabiyotlarni o'qing, mulohaza qiling va tahlil qiling. G.A.Altshullerning hisobicha, J.Vernning 108 tadan 99 ta, G.Uellsning 86 tadan 77 ta, A. Belyaevning 50 tadan 47 ta bashorat qilingan g'oyalari qo'llaniladi.

3. Miyaning "qotib qolishi"ga yo'l qo'ymasdan, doim mashq qildiring. Yuqorida keltirilgan de Bononing 5 qoidasiga qarang: odatiy narsalarga shubha bilan qarang. O'zingizni ijodiy to'xtamlar qilishga undang va ularni yodda saqlab qoling (shu erda g'oya bo'lishi lozim). O'zingizga o'zingiz shart qo'ying. O'zingizga g'ayrioddiysavollar bering. Turli variantlarni izlang. Bir fikrga bo'lgan qarashlaringizni almashtirib ko'ring. O'zlashtirilgan malakalar har qanday vaziyatda sizga ijodiy echimlarni topish imkonini beradi.

4. Har qanday bo'sh daqiqani odatdagi noodatiy narsani topishga sarflang.

5. Izlanishdan to'xtamang, noodatiy masalalarni echish – murakkab jarayondir, faqat o'z ustingizda tizimli va uzluksiz ishlasangizgina istalgan natijaga erishishingiz mumkin.

6. Yangi g'oyalarni o'ylab topish qoidasini yodda tuting. Misol uchun bir kunda beshtadan g'oya o'ylang. Hattoki, kreativ bo'lmagan va umuman o'zingiz amalda qo'llamaydigan, ma'nosiz g'oyalarni ham yozib boring.

7. G'oyalaringizni saqlab qo'ying: vaqt o'tishi bilan sizga qiziq tuyulgan g'oyalarni qo'llamasligingiz mumkin, nuqtai nazaringizni o'zgartirishingiz yoki mavjud g'oyalar asosida yangi g'oyalarni yaratishingiz mumkin.

8. Har bir ijodkor kishi tavakkal qilish qobiliyatiga ehtiyoj sezadi va o'z qaroringiz uchun javobgarlikdan cho'chimasligingizga ishonch hosil qiling.

Xulosa qilib aytganda, inson hayoti tasavvur etish, fikrlash, xotirada saqlashkabi jarayonlar ichida kechadi. Noodatiy fikrlash, noodatiy tafakkurni rivojlantirish orqali, hatto uzoq muddat ichida bo'lsa ham, yangi g'oyalar tug'ilishi mumkin. Bu jarayon harbiy xizmatchilar faoliyatida yanada muhim o'rin tutgan holda, eng murakkab va qiyin vaziyatlardan chiqish uchun noodatiy, biroq samarali qarorlar qabul qilishda qo'l keladi. Aqliy hujum - bu aniq belgilab berilgan muammolarni hal qilish maqsadida o'rganuvchi guruhlar tomonidan g'oyalarni yaratish uchun foydalanadigan usul. Boshqariladigan sharoitda va erkin fikrlash muhitida jamoalar muammoga "Biz qanday hal qilishimiz mumkin?" savollari bilan murojaat qilishadi. Ular juda ko'p g'oyalarni ishlab chiqaradi va potensial yechimlarni topish uchun ular orasidagi aloqalarni o'rnatadi.

"Tafakkur yuritishga harakat qilgan inson, hech shubhasiz, o'zi intilayotgan so'nggi darajadagi baxt-saodatga erisha oladi"

Abu Nasr Forobiy

Insonlarning fikrlash tarzi uning jamiyatda tutgan o'rni va darajasiganisbatan to'g'ri proporsionaldir. E'tibor berganmisiz, odatiy fikrlash tarziga ega insonlar odatdagi insonlar kabi hayot kechiradilar. Aksincha, qaysi sohadaki muvaffaqiyatga erishgan insonlarning barchasi odatdagi insonlardan ko'ra boshqacha fikrlaydilar. Ulardagi nostandart fikrlash tarzi insoniyat uchun hali ma'lum bo'lmagan echimlarni topishiga sabab bo'lgan va buning natijasida ular biznesda, ilm-fanda yoki san'atda ulkan muvaffaqiyatlarga erishganlar.

Har qanday masalada echimga kelishning ko'plab yo'llari mavjud. Aksariyat insonlar qaysidir masalaga duch kelishsa, bu masala o'zidan oldin qaysi yo'llar bilan echim topganiga e'tibor qaratishadi va shularning orasidan o'ziga eng ma'qulini tanlaydilar. Chunki, ta'lim olish jarayoni bizni uzoq yillar davomida shu tarzda tarbiyalagan.

Vaholanki, har qanday masalaning yechimida har doim shu paytgacha ma'lum bo'lganidan tashqari yana boshqa yo'llar ham mavjud bo'ladi. Ularni topish esa noodatiy fikrlaydigan, o'z yo'lini qidiradigan insonlargagina nasib qiladi.

Masalaning yechimida siz topgan yangi yo‘l eng maqbuli bo‘lmasligi mumkin, ammo u sizgagina tegishli ekanligi va yangiligi bilan qadrli bo‘ladi. Yangi topilgan yo‘l biznesda bu yo‘nalishda raqobatchilarning kam bo‘lishi bilan muvaffaqiyatga etaklasa, ilm-fanda esa insoniyat erishgan ilm-fan sarhadlarining kengayishiga xizmat qilishi bilan qadr topadi. Yangi usullar topish kishidagi faraz qilish qobiliyati bilan amalga oshadi. A.Eynshteyn faraz qilish ko‘nikmasini bilimdonlikning eng yuqori pog‘onasi deb hisoblagan, farazsiz yangilik ochish mumkin emasligiga ishongan.

Matematiklar “yigirmata masalani bitta usul bilan echgandan ko‘ra, bitta masalani yigirmata usul bilan echgan yaxshiroq” ekanligini ta’kidlaydilar. Bu, aslida, bir xillikdan qochish bilan birga kreativ yondashuvni, nostandart fikrlashni rag‘batlantirish demakdir.

Tavsiyalar. Xo‘sh, yoshlarni nostandart fikrlashga o‘rgatish uchun bugungi kun pedagogikamizda qanday usul va vositalardan, metodlardan foydalanish zarur? Bu borada biz quyidagilarni tavsiya qilamiz:

1. O‘qituvchining talabalarga o‘z fikrlash tarzini ro‘kach qilib, ulardan ham shunday fikrlashni talab qilishdan tiyilishi.
2. Talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish.
3. Turli-tuman g‘oya va fikrlarni qabul qilish, o‘qitish jarayonida mavjud bilimlarni yodlash va xotirada saqlashdan ko‘ra, masalaning mohiyatini tushuntirishga e’tiborni qaratish.
4. Ilmiy terminlar va tushunchalarning ta’rifi, qonuniyatlar va qoidalarni shunchaki yodlash emas, balki ularning mazmunini anglash va mohiyatini tushunishga urg‘u berish. Bunda uning mohiyatini o‘quvchilarga tushuntirishda muayyan ta’rif, qoida va qonuniyatni analiz (tahlil) va sintez (tavsif) qilish metodi qo‘l keladi.
5. Dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni har bir fan, kerak bo‘lsa, har bir mavzu borasida hodisa va mohiyatni, sabab va oqibatni anglashga, fan doirasida va fanlararo o‘zaro bog‘lanish, munosabat va muvozanatlarni tushunishlariga, taqqoslash, solishtirish va mantiqiy xulosalar chiqarishlariga sharoitlar yaratish.
6. Talabalarda mohiyatga etib kelishning yangi yo‘llarini qidirishga rag‘bat uyg‘otish, bunda ularga xatoga yo‘l qo‘yishlari tabiiy hol ekanligini va bundan qo‘rqmaslik kerakligini tushuntirish.
7. Talabalarni yangicha fikrlari bilan kulgiga qolmasligiga ishontirish.

8. Bir nechta masalani bir usulda echishdan ko'ra, bir masalani bir nechta usullar bilan echishga qaratilgan metodlardan foydalanish.
9. Talabalardagi ijodiy fikrlash tarzining har qanday ko'rinishlarini rag'batlantirish.
10. Talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash.
11. Har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish va hokazo.

Aslida bu sanab o'tilgan har bir taklif o'qituvchidan izlanishni, har bir dars mashg'ulotiga puxta tayyorgarlik ko'rishni talab etadi. Shuning uchun biz o'qituvchilarning har bir dars mashg'ulotiga ijodiy jarayon sifatida qarashini va unga tayyorgarlik jarayonida mavjud usul va vositalardan foydalanish bilangina chegaralanmasliklarini, balki shu mavzuni o'quvchilarga etkazishga yordam beradigan har qanday usul, vosita va shakllardan foydalanishdan qo'rqqmasliklarini aytgan bo'lar edik. Demak, nostandart fikrlash tarzini barcha faoliyat turlari qatorida dars mashg'ulotiga ham tatbiq etish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelish mumkin.

Umuman, insondagi nostandart fikrlash tarzining ahamiyati esa talabalarda masalaning mohiyatini anglash, sohada yangilik va kashfiyotlar yaratish, ijodiy fikrlash tarzining rivojlanishi, xato qilishdan qo'rqqmaslik ko'nikmasining shakllanishi, o'ziga nisbatan ishonchning ortishi kabi ijobiy oqibatlari bilan xarakterlanadi. Eng asosiysi, nostandart fikrlash ularni o'qishda hamda ishda kashfiyotlar va yangiliklar sari etaklaydi.

Adabiyotlar:

1. Ilm fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 29 oktabrdagi Farmoni.
2. Prezident Sh.M.Mirziyoyev raisligidagi 30 oktabr (2020 yil) mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillshtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi materiallari. Xalq so'zi. 2020 yil 31 oktabr. № 230 son.
3. O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasi rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Prezidentimizning 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108 sonli farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi. 2020 yil 30 dekabr.
5. Peter Holins, Mental Models, 30 Thinking Tools that Separate the Average

From the Exceptional Improved Decision-Making, Logical Analysis, and Problem-Solving. Peter Hollins 2019.

6. Jumanova S.B. Kreativ fikrlash. – «Издательский решения» 2020. ISBN 978-5-00-511636-9

7. Критическое мышление: Анализируй, сомневайся, формируй свое мнение/Том Чатфилд; Пер.с англо – М.:Альпина Паблишер, 2019. -328с.

Axborot manbalari:

8. www.ziyonet.uz

9. www.edu.uz.

10. www.google.uz.

5-MAVZU. VERTIKAL FIKRLASH (“VERTICAL THINKING”) VA LATERAL FIKRLASH (“LATERAL THINKING”)

Reja:

1. Vertikal fikrlash (VF) va lateral fikrlash (LF) ta’riflari.

2. VF va LF ning ahamiyati.

3. VF va LF ning xususiyatlari.

Vertikal fikrlash - bu odatda tanlangan, analitik va ketma-ket bo’lishni o’z ichiga olgan muammolarga yondashuv turi. Buni lateral fikrlashga qarama-qarshi deb ham aytish mumkin.

Muammolarni hal qilish usuli sifatida “vertikal fikrlash” tushunchasi birinchi marta Edvard de Bono tomonidan kiritilgan va uni 1970 yilda “Lateral Thinking: Creativity Step by Step” nomli nashridan boshlab topish mumkin.

Kitobda vertikal fikrlash kontseptsiyasi “tanqidiy fikrlash” bilan juda ko’p o’xshashliklarga ega ekanligini ko’rish mumkin. De Bono o’z matnida bu ikki tushunchani ajratib turuvchi asosiy omil tanqidiy fikrlash faqat aql bilan o’ylashni o’z ichiga oladi, vertikal fikrlash esa shaxsdan muammo yechimini topishda tartibni qo’llashni talab qiladi, deb tushuntiradi.



Vertikal fikrlashning mohiyati

Lateral (yon tomondan) fikrlash - bu darhol aniq bo'lmagan fikrlash orqali bilvosita va ijodiy yondashuv yordamida muammolarni hal qilish uslubi. Unga faqat an'anaviy bosqichma-bosqich mantiq yordamida erishib bo'lmaydigan g'oyalar kiradi.

Bu atama birinchi marta 1967 yilda Edvard de Bono tomonidan "the use of Lateral Thinking" kitobida ishlatilgan.

Lateral fikrlashni tanqidiy fikrlashdan farqlash kerak. Tanqidiy fikrlash, birinchi navbatda, xulosalarning haqiqiy qiymatini baholash va xatolarni izlash bilan bog'liq bo'lsa, lateral fikrlash xulosalar va g'oyalarning "harakat qiymati"ga ko'proq e'tibor beradi. Inson ma'lum bir g'oyadan yangi g'oyalarga o'tish uchun lateral fikrlashni qo'llaydi.

Lateral fikrlashning mohiyati



VF va LF ning ahamiyati.

Vertikal fikrlashning maqsadi ham muammoga bitta jiddiy javobni berishdir. Vertikal fikrlash, javob allaqachon mavjud bo'lgan va ketma-ket vositalar yordamida tushuntirilishi kerak bo'lgan jarayonlarda ko'proq qo'llaniladi. Shu nuqtai nazardan, vertikal fikrlash orqali olingan javob, shaxs uchun mavjud bo'lgan ma'lumotlarni ko'rib chiqishda ko'pincha "eng to'g'ri" deb hisoblanadi.

VF va LF ning ahamiyati:

- qaytadan faol fikrlash;
- tizimlashtirilgan: ketma-ket yondashishni rag'batlantiradi;
- mantiqiy yondashuvni hisobga oladi;
Birinchisi nazariya. "Liderlik sifatleri nazariyasi" dir yoki xarizmatik nazariya. Uning mohiyati shuki, hamma ham lider bo'la olmaydi, ayrim shaxslarda shunday sifatlar yig'indisi tug'ma mavjud bo'lib, ular uning guruhda lider bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, 1940 yilda Amerikalik K. Berd 79 sifatdan iborat bo'lgan liderlik qirralari ro'yxatini tuzdi. Bu ro'yxatda jumladan: tashabbuskorlik, muloqotga kirisha olish, yumor hissi, o'ziga ishonch, tez va aniq qarorlar qabul qila olish, tashkilotchilik kabi sifatlar bor edi. Lekin bu nazariyaning xatoligi shunda ediki, birinchidan, u yuqoridagi sifatlar qanday qilib namoyon bo'ladi-yu, qanday shakllanishini tushuntirib bera olmadi, ikkinchidan, so'roqlar mobaynida birorta sifat ham mutloq ko'p marta qayd etilmadi.

Ikkinchi nazariya. Liderlikning vaziyatga bog'liqligi nazariyasidir. Bu yerdagi asosiy g'oya Lider vaziyatning mahsuli degan g'oyadir. Har bir odamda liderlik sifatleri bor, lekin ayrim vaziyatlar ayrim shaxslarning o'zlarining ko'rsatishlari, lider bo'lish uchun qulay hisoblanadi.

Uchinchi nazariya. liderlikning sintetik nazariyasidir. Bu nazariya liderni guruhiiy munosabatlarning bevosita mahsuli deb qaraydi, liderning ro'yobga chiqishida guruhning birlamchi rolini ilgari suradi. Sinetik nazariya tanqid qilish natijasida paydo bo'lgan. Psixolog A.N. Leontevning faoliyat konsepsiyasiga tayangan holda, liderlikni faoliyat mahsuli, guruhning ushbu faoliyatga munosabati va guruhda qabul qilingan normalar va ijtimoiy kutishlarga kim ko'proq javob berishiga qarab liderni aniqlash mumkin. Ijtimoiy kutishlar nazariyasi hozirda ko'pchilik tomonidan ma'qul yondashishlardan biri deb qabul qilinmoqda.

Har bir lider yoki boshliq o'zicha individual va qaytarilmasdir. Buning boisi har bir boshliq o'z ish faoliyatini, boshqaruv faoliyatini o'ziga hos tarzda tashkil etishidadir. Ijtimoiy psixologiyada boshqaruv sohasida batafsil o'rganilgan muammolardan biri bu turli boshqaruv uslublaridir. Bu sohada nemis olimlari G.Gibsh va M. Forverg, rus olimlari V.D. Parigin, L.N. Umanskiy, M.Yu. Jukov va boshqalarning ishlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Barcha ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirgan holda ijtimoiy psixologiyada qabul kilingan uch asosiy boshqarish uslublariga harakteristika berib chiqamiz.

Avtoritar rahbar barcha ko'rsatmalarni ishchanlik ruhida, aniq ravshan, keskin ohangda xodimlarga yetkazadi. Muloqot jarayonida ham xodimlarga nisbatan do'q-po'pisa, keskin ta'qiqlash kabi qat'iy ohanglardan foydalanadi. Uning asosiy maqsadlaridan biri nima yo'l bilan bo'lsada, o'z hukmini o'tkazish. Uning nutqi ham aniq va ravon doimo jiddiy tusda bo'ladi. Biror ish yuzasidan xodimlarni maqtash yoki ularga jazo berish, tanqid qilish sof sub'ektiv bo'lib, bu narsa boshliqning kayfiyatiga va o'sha shaxslarga nisbatan shaxsiy munosabatiga

bogʻliq. Jamoa aʼzolarining tilak-istaklari, ularning fikrlari va maslahatlari juda kam xollardagina inobatga olinadi, aksariyat hollarda bunday istaklar yoki koʻrsatmalar toʻgʻridan-toʻgʻri doʻq-poʻpisa, kamsitish yoki maʼnaviy jazolash yoʻli bilan cheklanadi yoki qoniqtirilmaydi. Bunday rahbar oʻz ish uslublari, kelajak rejalari, biror aniq ishni, operatsiyani qanday amalga oshirmoqchiligini odatda, jamoadan sir tutadi, uning fikricha, bu uning obroʻyiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Guruhdagi ijtimoiy-fazoviy munosabatlardagi oʻrni jihatidan, u "jamoadan chetda", avtonomdir.

Avtoritar rahbarda har bir jamoa aʼzolarining qobiliyatlari, ishga munosabatlari, mavqelariga koʻra tutgan oʻrinlari haqida tasavvurlar borki, shunga koʻra u har bir xodimning ish harakatlarini maksimal tarzda dasturlashtirib qoʻygan, unda har qanday cheklashlar uning ochiq gʻazabini keltiradi va buning uchun unda jazolashning turli uslublari mavjud. Yaʼni bunday jamoalarda hokimiyat— markazlashtirilgan, jamoa rahbari ushbu markazning yakka hokimi — shuning uchun ham bu yerda "mening odamlarim", "mening ishim", "mening fikrim boʻyicha" kabi iboralar tez-tez ishlatiladi. Bunday rahbarlarda ishga nisbatan shunday fidoiylik borki, ular oʻzlarini shu ishsiz tasavvur qila olmaydilar, yaʼni ish uning "butun vujudini qamrab olgan". Shu sabab boʻlsa kerak bunday rahbar har bir odamni uning kundalik ish faoliyatini, uning natijalarini juda yaxshi biladi. Lekin, aslida, uni ishning mazmunidan koʻra, uning oʻsha yerdagi yetakchilik roli, boshliqligi koʻproq qiziqtiradi va oʻziga oʻsha sifatarga qarab baho beradi.

Bu sifat, tabiiyki, ishning sifatiga ham taʼsir qilgani uchun jamoa oldiga qoʻyilgan barcha topshiriqlar bajarilmay qolmaydi ("temir rahbar"). Bunday jamoalarda tanqid ishi juda sust, chunki u oʻzini ham, boshqalarni ham tanqid qilishlariga yoʻl qoʻymaydi. Tanqid qilishga, uning fikricha, faqat boshliq haqli, yigʻilishlarda soʻzni oʻzi boshlab, tashabbusni oxirigacha boshqalarga bermaydi, odamlarning takliflari, ularning hissiyotlari eʼtiborga olinmaydi. G. Gibsh va M. Forverglarning tahlil qilishlaricha, avtoritar lider bosh boʻlgan jamoada ishlarning samaradorligi ancha yuqori boʻlib, ishlab chiqarish koʻrsatkichlari ham yuqori boʻlar ekan. Lekin jamoadagi ruhiy-maʼnaviy muhit ogʻir, tang boʻlib, bu narsa odamlarning jamoadan, ishdan qoniqmasliklariga olib keladi. Bunday rahbarlar boshchilik qilgan mehnat jamoalarida ishlaydigan odamlar oʻz kasblari, ish joylarini osonlikcha almashtirishlari mumkin.

Demokratik rahbar, aksincha, boʻysunuvchilarga mustaqillik erk berish tarafdori. Ishda topshiriqlar berganda ishchilarning shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda taqsimlaydi. Bunda u xodimlarning shaxsiy moyilliklarini ham

hisobga oladi. Buyruq yoki topshiriqlar, odatda, taklif ma'nosida beriladi. Nutqi oddiy, doimo osoyishta, sokin, unda o'rtoqlarcha, do'stona munosabat sezilib turadi. Biror kishini maqtash, uning lavozimini oshirish yoki ishdagi kamchilikka ko'ra ishiga baho berish doimo jamoa a'zolarining fikri bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Tanqid, ko'pincha taklif, istak shaklida qilingan ishlarning mazmuniga baho berish holida "aybdorga" yetkaziladi. Har bir yangi ish jamoa maslahatisiz boshlanmaydi. Shuning uchun ham uning fazoviy-ijtimoiy holati "jamoada ichida".

Jamoada tanqid va o'z-o'zini tanqid shunday yo'lga qo'yilganki, uning oqibatidan hech kim aziyat chekmaydi. Chunki ko'prok boshliq emas, balki jamoaning boshqa faollari — norasmiy liderlar tanqid qiladilar. Boshliq yo'l qo'ygan xato-kamchiliklarni jamoatchilik oldida bo'yniga olishdan qo'rqmaydi. Chunki undagi mas'uliyat hissi nafaqat yuqori boshqaruv tashkilotlari a'zolari bilan muloqot paytida, balki, xodimlar bilan muloqotda ham sezilib turadi va qo'yilgan topshiriq yuzasidan mas'uliyatni boshqalarga ham bo'lib berishni yaxshi ko'radi. Boshliqning xodimlaridan siri yo'q, shuning uchun ham majlislarda ko'proq u emas, balki barcha xodimlar gapiradilar, oxirgi qaror chiqarish va so'zlarni yakunlash, umumlashtirish huquqidan u to'liq foydalanadi.

Gibsh va Forverglarning tahlillariga ko'ra, bunday boshliq rahbarlik qilgan jamoalarda ma'naviy-ruhiy muhit juda yaxshi, ishchilar jamoadan, ishdan qoniqish hosil qilganlar, ishdan ketish hollari kam bo'ladi, lekin ishlab chiqarish zo'rg'a norma holatida bo'lar ekan.

Liberal uslub - bu uslubda ishlaydigan rahbarning kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mamnun yoki mamnun emasligini bilish qiyin. Unda taqiqlash, po'pisa bo'lmaydi, uning o'rniga ko'pincha ishning oxirgi oqibati bilan tanishish bilan cheklanadi, xolos. Jamoada hamkorlik yo'q boshliq jamoaning muammolari, ishning baland-pasti bilan qiziqmaydiganday, go'yoki boshqa "koinotda" yurganga o'xshaydi. Aniq ko'rsatmalar bermaydi, uning o'rniga norasmiy liderlar yoki o'ziga yaqin kishilar orqali qilinishi lozim bo'lgan topshiriqlar bajaruvchilarga yetkaziladi. Uning asosiy vazifasi, uning nazarida, xodimlar uchun ish sharoitini yaratish, ishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, kerakli mahsulot, xom-ashyo kabilarni topib kelish, majlislarda qatnashish va hokazolardan iborat. Xodimlar bilan muloqotda bo'lishga to'g'ri kelganda, u doimo xushmuomala bo'lib, odob, ahloq normalarini buzmaslikka harakat qiladi, lekin hech qachon ular bilan tortishmaydi. Majlislarda agar biror muammo munozarani keltirib chiqarsa, u bevosita jarayonga aralashmay, oxirgi so'zni

o'ziga qoldiradi. Shunday qilib, xodimlarga fikrlash va hatti-harakatlar erkinligi berib qo'yilgan, bular yuzasidan boshliqning fikri so'ralgan taqdirda ham, undan aniq gap chiqmaydi, chunki u xodimlarni yaxshi bilmaydi, qolaversa, ularni xafa qilib qo'yishdan qo'rqadi. Uning fazoviy-psixologik holati "guruh tashqarisida".

Olimlar fikricha, bunday rahbar ishni olib borgan jamoalarda barcha ko'rsatkichlar doimo orqada, qo'nim ham yo'q. Liberal rahbar ishda o'zboshimchalikka yo'l qo'yib, ko'p turmay, boshqa yerdan ish qidirishga harakat qiladi. Yuqorida baho berilgan boshqarish uslublari ko'proq liderlikka emas, balki rahbarlikka taalluqli, lekin ilmiy adabiyotlarda bu ikkala ibora, ko'pincha sinonimday ishlatiladi. Aslida, eng yaxshi rahbar o'zida barcha liderlik sifatlarini ham mujassamlashtirgan bo'ladi. Chunki sof ijtimoiy psixologik ma'nodagi liderning turlari turli sharoitlarda o'zida ko'proq namoyon etadigan shaxsiy sifatlariga ko'ra tabaqalanadi. Masalan, lider-tashkilotchi, lider-tashabbuskor, lider-erudit, jamoa hissiy-emotsional holatni boshqaruvchi lider, lider-bilag'on va hokazo.

Yaxshi rahbar ana shu lider sifatlarini bilgan holda, ularni o'zida tarbiyalashi va jamoasidagi liderlar bilan hamkorlikda ishlay olishi kerak. Oxirgi yillarda Moskva va boshqa yirik ilmiy markazlarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelindiki, aslida hayotda sof demokrat yoki sof avtoritar rahbarni uchratish qiyin, lekin uchragan paytda ham ular bir jamoani uzoq muddat boshqara olmasligi ma'lum buldi. Shuning uchun ham ular vaziyatga bog'liq, konkret jamoa, unda qabul qilingan hatti-harakat normalari, shaxslararo munosabatlar tipi liderning ham, rahbarning ham ish taktikasi va uslubini belgilaydi, degan g'oya qabul qilinmoqda. Lekin bu rahbarlik uslublarning psixologik mazmun va mohiyatini bilishning amaliy ahamiyati shundaki, har bir uslubda o'ziga xos ijobiy tomon bor, mohir rahbar o'zini-o'zi tarbiyalar ekan, o'shalarining eng ma'quli, ayniqsa o'zi rahbarlik qilayotgan jamoaga moslarini tarbiyalashi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Peter Holins, Mental Models, 30 Thinking Tools that Separate the Average From the Exceptional Improved Decision-Making, Logical Analysis, and Problem-Solving. Peter Hollins 2019.
2. Jumanova S.B. Kreativ fikrlash. – «Издательский решения» 2020. ISBN 978-5-00-511636-9
3. Критическое мышление: Анализируй, сомневайся, формируй свое мнение/Том Чатфилд; Пер.с англ. – М.:Альпина Паблишер, 2019.

-328с.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Andrew Pressman. Design thinking a guide to creative problem solving for everyone. Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN, 2019.
5. Adair John. Decision making and problem solving strategies. 2nd.ed. Printed and bound in India by Reblika Press Pvt Ltd, 2010.
6. Скотт Торт. Учебник креативного мышления. Перевод с англ. Минск. «Попури» 2010. -288с.
7. Helene Edberg. Creative Writing for Critical Thinking. Creating a Discoursal Identity. ISBN 978-3-319-65490-4 ISBN 978-3-319-6549-1 (eBook). Sodertom University, Stockholm, Sweden, 2018.
8. Искусство мыслить и успех в учебе, карьере, жизни. 500 упражнений для развития мозга/Стелла Коттрелл; (пер с.англ Е.И. Фатеевой) – Москва : Издательство «Э», 2016, -288 с.
9. Эдвард де Боно. Шесть шляп мышления. Питер. 2016

Axborot manbalari:

10. www.ziynet.uz
11. www.edu.uz.
12. www.google.uz.

9 - MAVZU : YONDASHUVNI ANIQLASH VA UNING SHAKLLANISHI

Reja:

1. Yondashuvni aniqlash va uning xususiyatlari.
2. Yondashuvni aniqlash shakllari va usullari.
3. Yondashuv shakllanishi va uning xususiyatlari.

Tizimli yondashuv va tizimni tahlil qilish - bu tizimni hayotiy tsiklini muhokama qilishda tez-tez ishlatiladigan ikkita atama. Tizim bu muayyan vazifa yoki vazifalarni bajarish uchun uyushgan butun birligidir. Tizim kirish, chiqish, ishlov berish, fikr-mulohaza va boshqaruvdan iborat. Tizim ko'plab quyi tizimlardan yoki tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi mumkin. Tizim ulanish, hamkorlik, muvofiqlashtirish, boshqarish kabi ko'plab xususiyatlarga ega va tizimning pastki qismlari o'rtasida aloqa bo'lishi kerak. Tizimning pastki qismlari o'rtasida hamkorlik va muvofiqlashtirish bo'lishi kerak. Dasturiy ta'minotni ishlab chiqishda tashkilot tomonidan ma'lum bir jarayon kuzatiladi.

Tizimni ishlab chiqish hayot aylanishi (SDLC) deb nomlanadi. Bu yuqori sifatli dasturiy ta'minotni loyihalash, ishlab chiqish va sinovdan o'tkazishga yordam beradi. Tizimli yondashuv va tizimni tahlil qilish SDLC bilan bog'liq ikkita atamadir.

SDLCning asosiy bosqichlari

- texnik-iqtisodiy asoslash
- tizimni tahlil qilish
- tizimni loyihalash
- ishlab chiqish
- sinovdan o'tkazish
- texnik xizmat ko'rsatish

Tizimli yondashuv - bu muammoni hal qilishning tizimli jarayoni. Tizim yondoshuvi va tizimni tahlil qilish o'rtasidagi asosiy farq shundaki, tizim yondoshuvi Tizimni ishlab chiqish hayotiy siklining bosqichi bo'lsa, tizimni ishlab chiqish hayotiy tsikliga (SDLC) qo'llanilishi mumkin bo'lgan muammolarni echish metodologiyasi.

Tizim turli komponentlar va xususiyatlarni anglatadi. Har bir tizim erishish uchun ma'lum maqsadlarga ega. Tizim ma'lum bir vazifani yoki vazifalarni bajarish uchun kirish, chiqish va ishlov berish moslamalarini o'z ichiga oladi. Odatda, tizim ma'lum qoidalar va qoidalar bilan qurilgan. Birinchidan, muammo tizim yo'nalishi yordamida aniqlanadi. Keyin muammoni hal qilish uchun mumkin bo'lgan echim topilishi kerak. Tizim ma'lum chegaraga ega. Tizimning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, uni quyi tizimlarga bo'lish mumkin.

Muammoni hal qilish uchun o'rnatilgan muammoni echish metodologiyasidan foydalanganda u ilmiy usul deb nomlanadi. Ushbu usul bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, haqiqiy dunyo hodisalarini aniqlash juda muhimdir. So'ng, hodisalarning sabablari va oqibatlari haqida farazni shakllantirish kerak. Keyin gipotezani tajriba yordamida sinab ko'rish kerak. Tajribalar natijalarini baholaganingizdan so'ng, faraz haqida xulosa chiqarish oson. Odatda tizimli yondashuv bu muammoni hal qilishning tizimli jarayoni.

Muammoni hal qilish va unga yechim topish uchun bir qator tadbirlar mavjud. Birinchidan, tizim tafakkuridan foydalanib, muammo nima ekanligini aniqlash kerak. Tizim tafakkuri - ko'rib chiqilayotgan har qanday vaziyatda tizimlarni, quyi tizimlarni va tizimlarning tarkibiy qismlarini topish. Keyin alternativ echimlarni baholash va ishlab chiqish mumkin. Hammasi bo'lib, muammoni hal qilish uchun eng yaxshi echimlarni tanlash kerak. Va nihoyat, tanlangan echim ishlab chiqilgan va amalga oshiriladi. Amalga oshirish rejasida amalga oshirishni yakunlash uchun zarur bo'lgan manbalar, tadbirlar va muddatlar mavjud.

Tizimli tahlil nima?

Axborot tizimiga tizimli yondashuvni qo'llash tizimni ishlab chiqish davri (SDLC) deb nomlanadi. SDLCning asosiy bosqichlari rejalashtirish, tizimni tahlil qilish, tizimlarni loyihalash, ishlab chiqish, tizimni sinovdan o'tkazish va texnik xizmat ko'rsatishdir. Rejalashtirishda muammoning ko'lami aniqlanadi. Ushbu bosqichda resurslar, xarajatlar, vaqt va boshqalar hisobga olinadi.


Keyingi bosqich - tizimni tahlil qilish.

Bu oxirgi foydalanuvchi uchun zarur bo'lgan funktsional talablarni chuqur o'rganishdir. Tizimli tahlil bu tizimni o'rganish va maqsadlarni aniqlashdir. Bu faktlarni to'plash va izohlash, muammoni aniqlash va tizimni uning tarkibiy qismlariga ajratish jarayonidir. Tizim tahlili vazifani bajarish uchun barcha tarkibiy qismlarning ishlashini ta'minlashga yordam beradi. Tizim tahlilining natijalari tizimni loyihalashga kirishdir.

Loyihalashda u tizim spetsifikatsiyasini ishlab chiqaradi. Tizimni loyihalashga kirish tizimni tahlil qilish bosqichining funktsional talablari hisoblanadi. Tizim dizayni jarayonlarni loyihalashni, ma'lumotlarni loyihalashni va foydalanuvchi interfeysini loyihalashni o'z ichiga oladi.

Jarayon dizayni – bu taklif etilayotgan tizim uchun zarur bo'lgan kompyuter dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan dizayn jarayoni. Ma'lumotni loyihalash tizimning ER diagrammalarini modellashtirishni o'z ichiga oladi.

Foydalanuvchi interfeysi dizayni oxirgi foydalanuvchi va tizimning o'zaro ta'siriga qaratilgan. Tizimni boshqarish uchun displey ekranlari mavjud. Sinov bosqichi - bu taklif qilinayotgan tizim natijalari kerakli maqsadlarga mos kelishini tekshirish va tekshirish. Ta'minot bosqichida tizimni yaxshilash uchun yangi funktsiyalar qo'shilishi mumkin.



Tizim yondashuvi va tizimni tahlil qilish o'rtasidagi o'xshashlik nima?

Tizimning yondashuvi va tizimni tahlil qilish tizimni ishlab chiqarish hayot aylanishi (SDLC) bilan bog'liq.

Tizim kirish, chiqish, ishlov berish, fikr-mulohaza va boshqaruvdan iborat. Tizim ko'plab quyi tizimlardan yoki tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi mumkin. Dasturiy ta'minotni ishlab chiqishda tashkilot tomonidan ma'lum bir jarayon kuzatiladi.

Tizimni ishlab chiqish hayot aylanishi (SDLC) deb nomlanadi. Tizimli yondashuv va tizimni tahlil qilish SDLC bilan bog'liq ikkita atamadir. tizim yondashuvi va tizimni tahlil qilish o'rtasidagi farq haqida gap boradi.

Tizim yondoshuvi va tizimni tahlil qilish o'rtasidagi farq shundaki, tizim yondoshuvi tizimni ishlab chiqish hayotiy tsiklining bosqichi bo'lsa, tizimni ishlab chiqish hayotiy tsikliga (SDLC) qo'llanishi mumkin bo'lgan muammolarni echish metodologiyasidir.

Tizim tafakkuri - ko'rib chiqilayotgan har qanday vaziyatda tizimlarni, quyi tizimlarni va tizimlarning tarkibiy qismlarini topish.

FOZILLAR SHAHRI HOKIMINING FAZILATLARI HAQIDA **(Abu Nasr Farobiy)**

Bunday shaharga hokim bo'ladigan odam (Allohdan boshqa) hech kimga bo'ysunmasligi kerak. Fozillar shahrining birinchi boshlig'i shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo'lib, u tabiatan o'n ikkita xislat-fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur.

Fozillar shahri hokimi avvalo to'rt muchasi sog'-salomat bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishida biror a'zosidagi nuqson xalal bermasligi lozim. Aksincha, u sog'-salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim.

(Birinchi) Fozillar shahri hokimi avvalo to'rt muchasi sog'-salomat bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishida biror a'zosidagi nuqson xalal bermasligi lozim. Aksincha, u sog' -salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim.

(Ikkinchi), bunday shahar hokimi tabiatan nozik farosatli bo'lib, suhbatdoshining so'zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg'ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur.

(Uchinchi), quvvai hofiza, u anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to'la- to'kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarini unutmasligi zarur.

(To'rtinchi), u zehni o'tkir, zukko bo'lib, har qanday narsaning bilinar -bilinmas alomatlarini va u alomatlar nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur.

(Beshinchi), u fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida fasohatli ifodalay olishi zarur.

(Oltinchi), u (ustozlardan) ta'lim olishi, bilim, ma'rifatga havasli bo'lishi, o'qish, o'rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo'lishi zarur.

(Yettinchi), taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o'zini tiya oladigan bo'lishi, (qimor yoki boshqa) o'yinlardan zavq, huzur olishdan uzoq bo'lishi zarur.

(Sakkizinchi), u haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan bo'lishi zarur.

(To'qqizinchi), u o'z qadrini biluvchi va nomus- oriyatli odam bo'lishi, pastkashliklardan yuqori turuvchi, tug'ma olihimmat bo'lishi, ulug', oliy ishlarga intilishi zarur.

(O'ninchi), bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan (mol-dunyo ketidan quvmaydigan) bo'lishi zarur.

(O'n birinchi), tabiatan adolatparvar bo'lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko'ruvchi, o'z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi suygan go'zalliklarni ravo ko'ruvchi bo'lishi zarur. O'zi haq ish oldida o'jarlik qilmay, odil ish tutgani holda, har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo'lishi zarur.

(O'n ikkinchi), o'zi zarur deb hisoblagan chora -tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi, qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi zarur.

Mana shu barcha xislatlarning bir odamda jamlanishi amri mahol, zero bunday tug'ma fazilatlar sohibi bo'lgan odamlar juda kam uchraydi va ular nodir insonlardir. Mabodo fozillar shahrida shunday barkamol inson topilib qolsa, unda yuqoridagi fazilatlardan oltitasi yoki beshtasi kamol topganida ham, u aql va zakovatda benazirligi tufayli fozillar shahriga rahbarlik qila oladi.

FOZILLAR SHAHRINING ZIDDI BO'LGAN SHAHARLAR HAQIDA SO'Z

Fozillar shahrining ziddi bo'lgan shaharlar:

1. Johillar shahri.
2. Benomuslar shahri.
3. Ayirbosh qiluvchilar shahri.
4. Adashgan, zalolatdagi odamlar shahridir.

Bu shahar – davlatlarning aholisi – ayrim odamlar ham fozillarning ziddi bo'lgan odamlardir. Johillar shahrining aholisi baxt-saodatga intilmaydi, asl baxt-saodat nimaligini bilmay di ham. Chunki jaholatdagi odamlar hech qachon baxt topmagan va baxt-saodatga erisholmaydi ham. Farovonlikka kelsak, jaholatdagi odamlar (haqiqiy obodlikni bilmasdan) ba'zilar nazarida baxtu davlat bo'lib ko'rinadigan o'tkinchi, yuzaki narsalarni, mol-dunyoni, jismoniy lazzatlarni, hirsu shahvatni, obro', amal, shon-shuhratni haqiqiy baxt, farovonlik deb

o'ylaydilar. Shu ne'matlardan har biri jaholatdagi odamlar nazarida hayotdan maqsad, baxt-saodat bo'lib ko'rinadi.

Adabiyotlar:

1. Peter Holins, Mental Models, 30 Thinking Tools that Separate the Average From the Exceptional Improved Decision-Making, Logical Analysis, and Problem-Solving. Peter Hollins 2019.
 2. Jumanova S.B. Kreativ fikrlash. – «Издательский решения» 2020. ISBN 978-5-00-511636-9
 3. Критическое мышление: Анализируй, сомневайся, формируй свое мнение/Том Чатфилд; Пер.с англо – М.:Альпина Паблишер, 2019. - 328с.
- Qo'shimcha adabiyotlar
4. Andrew Pressman. Design thinking a guide to creative problem solving for everyone. Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN, 2019.
 5. Adair John. Decision making and problem solving strategies. 2nd.ed. Printed and bound in India by Reblika Press Pvt Ltd, 2010.
 6. Скотт Торт. Учебник креативного мышления. Перевод с англ. Минск. «Попури» 2010. -288с.
 7. Helene Edberg. Creative Writing for Critical Thinking. Creating a Discoursal Identity. ISBN 978-3-319-65490-4 ISBN 978-3-319-6549-1 (eBook). Sodertom University, Stockholm, Sweden, 2018.
 8. Искусство мыслить и успех в учебе, карьере, жизни. 500 упражнений для развития мозга/Стелла Коттрелл; (пер с.англ Е.И. Фатеевой) – Москва : Издательство «Э», 2016, -288 с.
 9. Эдвард де Боно. Шесть шляп мышления. Питер. 2016
- Axborot manbalari:
10. www.ziynet.uz
 11. www.edu.uz.
 12. www.google.uz.

10-MAVZU: KREATIV MAHSULOT

Reja:

1. Kreativ mahsulot tushunchasi.
2. Kreativ mahsulotning xususiyatlari.
3. Mahsulotning kreativlik elementlari.

Rahbarning yetakchiligi va jamoasi uchun qo'yilgan cheklovlar, loyihaning qanchalik darajada kreativ bo'lishini aniqlab beradi. Kreativlik esa, yangi g'oyalarning ajralmas qismidir. "Ajablanarli tomoni shundaki, erkinlik berish va cheklovlar qo'yish o'rtasidagi ziddiyat kreativlikni rivojlantiradi", -deydi Montana universitetining tashkiliy psixologiya bo'yicha professori Brent Rosso. U yangi mahsulot yaratish jarayonidagi "In" va "Yan", ya'ni, erkinlik va cheklovlar o'rtasidagi muvozanatni o'rganadi.

"Nishonni ko'rsatib bering, ammo qanday o'q uzishni ayt mang"

Rosso.

Agar rahbar, ijodkor xodimlariga yetarlicha talablar qo'ymasa, ular eng oson yo'lni, eski g'oyalarga yangi ko'rinish berib qo'yishni tanlashlari mumkin. Lekin, keragidan ortiq cheklovlar kreativlikni "bo'g'ib" qo'yishi aniq. Yaxshi natijalarga erishgan kreativ jamoalar va ularning yetakchilari qachon cheklov qo'yish va qachon mutlaq erkinlikni ishga solish kerakligini o'rganib boradilar.

Ijodiy jamoalarni boshqarish va innovatsion loyihalarga turtki berish uchun Rossoning izlanishlariga asoslangan quyidagi to'rtta maslahati:

1. Jamoa erishishi kerak bo'lgan maqsadni aniq tasvirlab berish.
2. Jamoa qanday ishlashni o'zi tanlashligi.
3. Jamoaga qo'yilgan talablar asosli bo'lishligi.
4. Kattalashib borayotgan ijodiy jamoa o'z faoliyatini o'zi boshqarishligi.

"Chegaralangan "quti"lardan tashqarida fikrlash uchun, avvalo, qaysi "quti"da ekanligimizni bilib olishimiz kerak"

Rosso.

Loyiha boshqaruvchisi sifatida, mahsulotingiz xaridorlarning qanday muammolariga yechim bo'lishi va qanday xususiyatlarga ega bo'lishi, hamda, intellektual mulk kabi tashkiliy masalalarga boshidanoq e'tibor qarating. "Bunday talablar ijodiy guruh faoliyatini aniqlashtirib, kreativ fikrlashini maqsad sari yo'naltirishga yordam beradi",- deydi Rosso.

Yakuniy mahsulot nimani bajarishi kerakligini tushuntirilganidan so'ng, ishchilarga, ushbu vazifani o'zlari uchun qulay tarzda bajarishga ruxsat berish kerak.

“Hech bir ijodkor o'z ishini qanday bajarish kerakligi haqida eshitishni yoqtirmaydi”, -deydi Rosso. “Bu ularning ijodiga va ichki motivatsiyasiga zarar yetkazadi”. Vaqt, pul yoki xodimlar kabi resurslarning yetishmovchiligi haqida jamoangizga ogohlantirish bering. Lekin, ularning maqsadga erishish usullariga cheklov qo'ymang. Masalan, siz, jamoangizga budjet va muddatlarni belgilab berishingiz mumkin, biroq, qaysi vositalar yoki materiallardan foydalanishni jamoangizning o'ziga qo'yib bering.

"Agar siz cheklovlarni aniq va asosli qilib belgilab qo'ysangiz, qo'yilgan talablarning maqsadga muvofiqligi shubha ostiga olinmaydi. Natijada, ijodiy guruhning faoliyati optimallasadi va butun diqqat yangi mahsulot yaratishga yo'naltiriladi“

Rosso.

Kreativlik darajasini oshirish uchun yangi ishchilarni jalb qilish kerak. Bir-biri bilan yaxshi chiqishadigan shaxslarni bitta guruhga birlashtirish, do'stona muhit, muloqot va liderlik faktorlariga asoslangan bunday guruhlardan yaxshi g'oyalar chiqishi aniq. Jamoangiz bilan doimo maslahatlashing, balki, jamoa uchun boshqa shartsharoit kerak bo'layotgandir yoki ishchi resurslar noto'g'ri taqsimlangadir. Bunday masalalarga jamoa nuqtai-nazaridan qarash yaxshi natija beradi.

O'zbekistonda kreativ tadbirkorlik ta'limi va amaliyotini rivojlantirishning mavjud imkoniyatlarini tahlil etish, shuningdek, bu borada Buyuk Britaniya tajribasini keng joriy etish masalalarini o'rganish maqsadida “El-yurt umidi” jamg'armasi Britaniya kengashi bilan hamkorlikda “Kreativ tadbirkorlik ta'limi: ta'lim sohasi bozor ehtiyojlariga qanday javob beradi?” mavzusida xalqaro onlayn vebinar tashkil etdi. Vebinarida Buyuk Britaniya universitetlarida kreativ tadbirkorlik ta'limi va uning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'rnini, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida kreativ ta'limni rivojlantirish, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun kreativ tadbirkorlik sohasida amaliy-uslubiy maslahatlar, xususan, respublikamiz hududlari yoshlariga kreativ tadbirkorlikni rivojlantirishga amaliy tavsiyalar berish masalalari muhokama etildi.

Kreativ tadbirkorlik biznes sohasida yangi tushuncha hisoblanadi. Germaniya, Hindiston, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Braziliya, Kanada mazkur loyiha bo'yicha kreativ tadbirkorlikni rivojlantirgan mamlakatlar hisoblanadi.

AQSHda chop etiluvchi nufuzli Time jurnali o'z talqiniga ko'ra 2020 yilning eng yaxshi ixtirolarini ma'lum qildi. Yakunlanayotgan yilning eng yaxshi ixtirosi uchun bosh mukofotni ko'krak saratonini tashxislash uchun mo'ljallangan ixcham qurilma loyihasi oldi. Time nihoyalab borayotgan 2020 yilga yakun yasashni boshladi. Nashr joriy yilda paydo bo'lgan eng yaxshi 100 ta ixtiro ro'yxatini tuzdi. Ro'yxat 21 noyabrda nashr saytida e'lon qilindi. Ro'yxatni tuzishda jurnalning butun dunyodagi muharrirlari va jurnalistlari ishtirok etgan. Tanlovda ishtirok etish uchun arizalar onlayn shaklda qabul qilingan, so'ngra har bir nomzod bir qator ko'rsatkichlar, jumladan o'ziga xoslik, samaradorlik, sanoatga ta'siri bo'yicha baholangan.

Nashr saytida ixtirolar ekologiya, salomatlik, gajetlar va shu kabi yo'nalishlar bo'yicha saralangan. Ixtirolar orasida ko'plab antiqa ixtirolarni uchratish mumkin. Ro'yxatga kiritilgan e'tiborni tortuvchi ixtirolar sifatida yolg'iz kishilar uchun mo'ljallangan robot-it, jismoniy mashg'ulotlar uchun virtual reallik ko'zoynaklari, uy planetariysi, smartfon uchun dezinfektor funktsiyasiga ega quvvatlash dokstantsiyasi, tish pastasi uchun ekologik qadoq, aqlli asalari uyasini aytish mumkin. Nashr tuzgan ro'yxatda oddiy odamlar hayotda to'qnash kelishi dargumon bo'lgan ixtirolar ham talaygina, biroq ular orasida ko'plab ommalashgan gajetlar ham bor. 2020 yil ixtirolari orasida virus va bakteriyalardan himoyalovchi mis kurtka, 90 daraja burchakka burish mumkin bo'lgan Samsung The Sero televizori, elektr bolalar aravachasi, quruvchilarga gaplashishga, video yozishga imkon beruvchi va atrofdagi xavfli materiallardan ogohlantiruvchi "aqlli" kaska, 88 km/soat tezlik bilan yura oladigan va standart avtomobil qo'yish joyining bor-yo'g'i chorak qismini egallovchi kichik o'lchamli City Transformer elektromobili bor.


Shuningdek, ro'yxatda noutbukka aylanuvchi Microsoft Surface Duo smartfoni, suvni ultrabinafsha nurlar bilan 60 soniyada virus va bakteriyalardan tozalovchi qurilma, inson fikrlarini o'qiy oluvchi Lab AlterEgo qurilmasi, bor-yo'g'i 2 sm qalinlikka ega LG televizori, yuvish mumkin bo'lgan va zararli moddalardan 99,6 foizga himoyalovchi yuz niqobi, yurak qisqarishlari chastotasi, uyqu sifati va tana haroratini o'lchovchi "aqlli" uzuk kabi ixtirolarni ham uchratish mumkin.

Tadbirkorlik yoki biznes (inlizcha: business — "bandlik"), deb har qanday qonuniy tijorat faoliyatiga aytiladi. Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxs tadbirkor, deyiladi. Xususiy tadbirkorlik kapitalistik iqtisodiyot negizidir. Sotsialistik iqtisodiyotlarda tadbirkorlik bilan hukumat, jamiyat yoki

ishchilar kasaba uyushmalari shug'ullanadi. Tadbirkorlik xo'jalik yuritish ko'lamiga qarab, yirik, o'rta va kichik turlarga bo'linadi.

1. Yirik tadbirkorlik ishlab chiqarishda 500 dan ortiq kishi band bo'lgan.
2. O'rta tadbirkorlik esa 20 — 500 kishi band bo'lgan korxona firmalar.
3. Kichik tadbirkorlik 10 — 20 va undan kam kishi ishlaydigan korxonalarni qamraydi.

Yirik va o'rta tadbirkorlikka, asosan, yirik ishlab-chiqarish, ko'p sonli tovarlar chiqaradigan, mexanizatsiyalashgan hamda avtomatlashgan sohalar kiradi. Kichik tadbirkorlik qishloq xo'jaligi, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarida keng tarqalgan. Kichik tadbirkorlik sharoitga tez moslasha olishi bilan boshqalaridan



farqlanadi va shu bois u keng tarqalgan.

Pul- bu yaxshi ishchi. Pulni boshqarish sana'ati

1.Pulni boshqarish bosqichlari

Kechagi pul - sarmoya,tajriba

Bugungi pul – sotuv

Ertangi pul – aktivlar(ko'chmas mulk),

go'ya va reja pulni boshqarishda ishonch nega pulni saqlamaysiz?

Pulni boshqarish – bu san'at

2. Foyda va uning turlari

Foydaning 4 turi

liniyali foyda

shaxsiy biznes

passiv foyda

fond portfeli

biznes:

15% - pul

25% -bilim, tajriba

60% - avtoritetga asoslanadi.

Passiv foyda, Aktiv foyda.

3.G'oya, tizim va reja $Omad=reja +tizim+g'oya$

G'oya

- g'oya yangi yoki noyob bo'lsin
- istemolchi talabi
- bozorda o'z vaqtida paydo bo'lish
- o'sish quvvati yuqoriligi
- jamoa

biznesda avvalo jamoa kerak. Fikr paydo bo'ladi – aniqlashtiriladi va g'oyaga aylanadi.

Biznes reja – aniq tanlangan tadbirkorlik ishining barcha bosqichlari tavsiflangan va taxminan hisob kitob qilingan loyiha. Unda aniq tanlangan tadbirkorlik ishining hamma tomonlari o'z aksini topadi.

Xatolar

1. Noto'g'ri malumotlar va faktlarni to'plash, hisob-kitobdagi noaniqliklar.
2. Konsepsual xatolar, biznesda yetarli bilimga ega emaslik
3. Metodik xatolar, "surpriz" sifatida kerakmas vaqtda investor ko'ziga tushadigan mayda xatolar

Xulosa

1. Bir nechta tayyor biznes rejalarni o'qing
2. Biznes reja sizning shaxsingizni aks ettirsin
3. Tajriba va malakaga ega bo'lgan yo'nalishni tanlang
4. Tasavvur bilan emas aniq hisob kitoblar bilan ishleng
5. Biznes rejani kuchga to'la vaqtingizda yozing

Adabiyotlar:

1. Peter Holins, Mental Models, 30 Thinking Tools that Separate the Average From the Exceptional Improved Decision-Making, Logical Analysis, and Problem-Solving. Peter Hollins 2019.
2. Jumanova S.B. Kreativ fikrlash. – «Издательский решения» 2020. ISBN 978-5-00-511636-9
3. Критическое мышление: Анализируй, сомневайся, формируй свое мнение/Том Чатфилд; Пер.с англ. – М.:Альпина Паблишер, 2019. - 328с.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Andrew Pressman. Design thinking a guide to creative problem solving for everyone. Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN, 2019.
 5. Adair John. Decision making and problem solving strategies. 2nd.ed. Printed and bound in India by Reblika Press Pvt Ltd, 2010.
 6. Скотт Торт. Учебник креативного мышления. Перевод с англ. Минск. «Попури» 2010. -288с.
 7. Helene Edberg. Creative Writing for Critical Thinking. Creating a Discoursal Identity. ISBN 978-3-319-65490-4 ISBN 978-3-319-6549-1 (eBook). Sodertom University, Stockholm, Sweden, 2018.
 8. Искусство мыслить и успех в учебе, карьере, жизни. 500 упражнений для развития мозга/Стелла Коттрелл; (пер с.анг Е.И. Фатеевой) – Москва : Издательство «Э», 2016, -288 с.
 9. Эдвард де Боно. Шесть шляп мышления. Питер. 2016
- Axborot manbalari:
10. www.ziyonet.uz
 11. www.edu.uz.
 12. www.google.uz.

11- MAVZU: TANA FIKRLASH. IJODIY BOSIM

Reja:

1. Tana fikrlash mohiyati (tizimli yondashuv, dalillar).
2. Tana fikrlash strukturasi.
3. Tana tilidagi mohiyat.
4. Tana tilidagi muloqot

Tana tili nimani anglatadi?

Tana tili psixologiya, chunki fan bu hodisaga katta ahamiyat beradi. Insoniyat evolyutsiyasi jarayonida tananing tili etnosga bog‘liq holda o‘zgargan, biroq ko‘plab imo-ishoralar va yuz ifodalari butun dunyodagi odamlar uchun keng tarqalgan. Badan tilining nomi nima? Psixologlar bu hodisaga nom berishdi - og‘zaki bo‘lmagan muloqot. Tana tili - axborotni og‘zaki bo‘lmagan belgilar orqali yuborish: imo-ishoralar, yuz ifodalari, yurish.

Tana tili va og‘zaki til o‘rtasidagi farq

Og‘iz tilining og‘zaki tili - bu halol va ochiq til bo‘lib, uni eng to‘liq yaratish oson emas va agar kam ma’lumotli sodda odam bir aldovni sezmasa, sinxronizmning etishmasligi mutaxassis tomonidan e’tiborga olinmaydi.

Versenal belgilar tizimi bilan og‘zaki so‘z o‘rtasidagi farq:

1. Badan tili va imo-ishoralari qadimgi.

2. Og‘zaki muloqot ovoz, nutq va og‘zaki bo‘lmagan muloqot orqali keng tarqalgan bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi

yuz ifodalari;

imo-ishoralar;

pantomime;

ingl. aloqa;

yig‘lar;

tonality, timbre, ovozli diapazon (paralinguistics);

suhbat, qahqaha, yig‘lash (extralinguistics) da to‘xtaydi.

Tana tili va imo-ishoralarni psixologlar qabul qiladilar, NLP mutaxassisi odamdan og‘zaki bo‘lmagan ma'lumotlarga e'tiborni qaratib, odamni “karta” deb

o'qiydi. Mashhur chiroyli gipnoz va ajablantiradigan prognozlar TSipslar badan tilini o'rganish ustasi ekanligiga asoslanadi. O'zini va boshqalarni tanishga intiladigan har bir inson uchun bu kabi bilimlar kerak bo'ladi, bu xatodan qochishga yordam berishi mumkin, ko'p narsalarga "nurni ochib beradi".

Tananing tili bizga nima deydi? Ko'pgina narsalar haqida, lekin shuni yodda tutish kerakki, har qanday pozitsiyani, jestni, umumiy kontekstdan taqlid qilish haqiqiy taassurot qoldira olmaydi, "taxminan" biror narsa bo'ladi. Badan tilini o'qish qoidalarini mavjud:

1. Bir kishining yoshi, kasbi, lavozimi o'z tanalarini tananing tiliga qo'yadi - bolada bir necha imo-ishoralar, ko'proq takrorlanadigan namoyishlar, kattalardagi odamlarda gestiruv juda rivojlangan.
2. Ko'p miqdorda ichak tutilishi yoki uning etishmasligi har doim ham insonning hissiy yoki aksincha sovuq ekanligini anglatmaydi. Katta bilimli so'zga ega bo'lgan yuqori darajadagi odamlar o'zlarini ifoda etishlari uchun haddan tashqari bo'shashishga muhtoj emaslar, shuning uchun ular boy nutqda hissiy jihatdan befarq bo'lib ko'rinishi mumkin, ammo bu har doim ham shunday emas.
3. Nutqning to'liq ifodasi, yuz ifodalari, qarama-qarshiliklar, imo-ishoralar - sinxronizmning etishmasligi, odam yashirgan narsaning ochiq-oshkor qilinishini xohlamasligini ko'rsatadi.

Tana tili - qarama-qarshilik

Og'zaki bo'lmagan muloqot odamni og'zaki tarjimondan yaxshiroq tushunadi, boshqalar bilan muloqotda bo'ladi, bizning bilinishimiz juda tez shaxsiy ma'lumotlar oladi, lekin bu doimo ong bilan kuzatilmaydi, chunki ko'pchilik odamlar suhbat quradigan yaxshi odam kabi narsalarni bilishadi.

Unda shafqatsiz yoki nojo'ya narsa bor - buning hammasi aqlning nimani sezmagandligini sezganligi sababli. Og'zaki bo'lmagan muloqot unsurlarini ongli ravishda o'rganish orqali insonning shaxsini talqin qilish mumkin.

Kosmosda inson pozitsiyasining ma'nosi:

- bosh ochiq xurmolariga "ko'milgan", tirsaklar stolda - xonadagi odam ko'rishi kerak bo'lgan qizning tana tili yanada jozibali ko'rinishni istaydi;
- ko'kragiga "pretzel" ni kesib o'tish - fextavonie, ichkariga kirish, noaniqlik namoyishi;
- otish - shaxsni himoya qilish holatida;
- suhbatdoshga qaytib - muloqot istamaslik;
- o'z joni zerikish, qiziqishning etishmasligi;

- bosh suhbatdoshga to'g'ri keladi - suhbatda samimiy qiziqish his qiladi.

Tana tili - yuz ifodalari

Tana tilini qanday tushunish kerak, ba'zan inson haqidagi ishonchli ma'lumotni olish juda muhimdir, uni hech kim shovqinchining samimiyligiga shubha qilmasligi uchun bilishingiz mumkin, lekin tanani o'z maromida "yashaydi" va insonning haqiqiy ahvolini juda aniq ifodalaganini unutmang.

Yuz taniqli so'zlar:

- ko'zlar ochiq, qoshlar yuqoriga cho'zilgan va lablar burchaklari pastga tushishadi - bu kishi hayratda qoladi;
- torayib ketgan ko'zlar, lablar qattiq siqilgan - g'azabning belgisi;
- yo'qolgan ko'z, qoshlar birlashtiriladi, boshi tushadi - qayg'u, qayg'u insonni iste'mol qiladi;
- lablarning bir uchida tabassum - achinarli, ishonmaslik;
- ko'z bilan aloqaga ega bo'lmagan lablar bilan jilmayish - nosamimiylilik.

Tana tili - harakatlar

Badan tili va tanasi dinamikada kuzatilishi juda qiziq - bu ko'p narsalar haqida ko'p gapirish mumkin. Tana tilining elementlari, harakatlar talqini:

- bosh barmog'i bilan o'yin, ko'ylagi yoki shimning cho'ntagiga surish istagi - shuning uchun erkaklar o'z ustunligini, jinsiy tajovuzkorlik va takabburlikni namoyon qilishni xohlayotganda;
- o'zingizga teginish, bezatish - tashvish, noaniqlik, tinchlantirishga harakat qilish;
- soat, mobil telefon, oyoq tomonga qarab - zerikish, sabrsizlik, tark etish orzusi;
- Ko'zlarni o'pish charchoq haqida gapiradi;
- jag'ni silkitib qo'yish - kontsentratsiya qilish, biror narsa haqida o'ylash;

xurmo chekkasi "kesish" harakati - sabrsizlik, tajovuz.

Raqsdan, davlatda namoyon bo'lgan ruh va tananing tili yo'q. qadim zamonlardan o'zida mavjud bo'lib, gapirishni taqiqlab qo'ygan va xabarni tana harakati shaklida kodlash mumkin bo'lgan. Xotin-qizlar o'zlarining his-tuyg'ularini ko'zlari, qo'llari bilan minglab mikromovements orqali his-tuyg'ularini ifoda etadigan va boshini aylantirgan boy tuyg'ularni namoyon etadigan juda jonli. Raqs juda ko'p narsalarni aytib beradi. Insoniyat va erkaklar

chiroyli yarmi vakillari, shuningdek, juft raqsdan tananing tilini tan olish va sherigi yoki sherigini qanday tushunish kerakligi bilan qiziqishadi?

Raqsdan “maxfiy” tananing tili bor:

- qo‘llarini silkitib, barmoqlarini qo‘ldan mahkam ushlab turadigan signallarni chiqarib tashladi;
- qo‘lingiz yaqin shikastlansa, noqulaylik bo‘lsa, siz ko‘proq joy kerak bo‘lsa, quchoq‘ini bo‘shatish kerak;
- jasadning jasadini yaqinroq quchoqlash uchun harakat qilish - yaqinroq bo‘lish istagi;
- qo‘shiq tugadi va aloqa davom etmoqda - bu sherik bilan bo‘lish kabi, hali ham raqs qilishni xohlaydi.

Tana tili va xarakteri. Badan tiliga oid kitoblar insonning xulq-atvorini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar, asosan, psixologlar, tana yo‘naltirilgan psixoterapevtlar tomonidan yaratilgan. Ular badan tilining davlat bilan bog‘liqligini, hozirgi his-tuyg‘ularini, va mimikriy xarakterning namoyon bo‘lishidir.

Misol uchun, bir kishi doimo noqulay bo‘lgan narsa bilan ko‘pincha qoniqmaydi, unga nisbatan xarakterli yuz ifodasi bo‘ladi: qoshlarning pasayishi, hatto peshonadagi burishma, lablar tushiriladigan burchaklari, yuzi muzlatilgan niqob kabi yuzga tushiriladi. Ko‘rsatilgan durush: egalari tushib, orqaga bukuladi. Xayrli odam - uning yuz ifodasi ochiqdir: “quloqdan to quloqqa” cho‘zilmaydigan samimiy tabassum, balki ko‘zning burchaklariga harakat qilish. Eshaklar ochiq, orqa tekis, ko‘rinish nozik va hatto ko‘zlari kulib turadi.

Tananing tilini qanday o‘rganish mumkin? Kuzatuv - bu shaxsning so‘zlar bilan bir qatorda o‘zini qanday tutishini ko‘rishga yordam beradigan kundalik amaliyot. Hatto yuzaki kuzatish bilan tananing ayol tili va harakatlari erkakdan farq qiladi. Yana nima muhim? O‘zingizni bilmasangiz, badan tilingiz boshqalarni talqin qilishni o‘rganish qiyin - bularning barchasi o‘z-o‘zidan kashf qilishdan boshlanadi. Kelajakda boshqa odamlar bilan suhbatlashayotganda, insonning og‘zaki bo‘lmagan namoyonligiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq: kosmosdagi pozitsiya, jilmayish, jest.

Tana tili - kitoblar

Insonning tananing harakatlari, yuz ifodalari va imo-ishoralari orqali o‘zini qanday ifoda etgani qiziqtiradigan kishilar uchun tegishli adabiyotni o‘rganib, odamlarni diqqat bilan kuzata oladi. Badan tili va imo-ishoralari - psixologiya, o‘qish uchun tavsiya etilgan kitoblar:

" Body language ". Inson xatti-harakati ABC J. Fast. Kitob o'z-o'zini anglash uchun qiziqarli, tananing turli xil vaziyatlarga qanday munosabatda bo'lishini kuzatish, uning "qisqichlari" ni ko'rish, muallif boshqa mamlakatlarga sayohat qilishni istaganlar uchun foydali bo'lgan turli xalqlardagi imo-ishoralardagi farqlarni keltirib chiqaradi.

" Men sizning fikringizni bilaman. " D. Navarro. Kitob muallifi FBI da uzoq vaqt ishlagan va inson xatti-harakatlari haqida deyarli hamma narsani biladi. Noto'g'ri so'zlashuv orqali yolg'onni qanday qilib tanib olish masalasiga katta e'tibor beriladi.

" Sign Language. So'zsiz fikrlarni qanday o'qiysiz? 49 oddiy qoidalar "O. Sergeeva. Turli vaziyatlarda bir kishi o'zini turli burchaklardan ochib beradi, va uning tanasi bugungi kunda egasi bo'lgan narsalar haqida gapiradi. Ko'zda tutilgan so'zlar 20%, aysbergning uchi va 80% harakati va harakati - ularning barchasi haqiqatdir.

" Rahbarlar uchun tanlangan til " G.K. Kinsey. O'ziga ishonchni kuchaytirishni va o'z atrofida qilargalarga ishonishni xohlaydigan insonlar uchun, suhbatda, kompaniyada qanday harakat qilishni, boshqalarga qanday shaxs ekanligini ko'rishni istaganlar uchun bu eng ko'p sotiladigan kitobdir.

" Yangi imo-ishoralar tili ". Kengaytirilgan versiya A. Pease, B. Pease. Kitob mualliflari, 20 yoshdan oshgan mashhur psixologlar turli xil vaziyatlarda ko'plab kishilarni o'rganishgan, shuning uchun inson tanasining tili ular uchun uzoq vaqtdan beri sir bo'lib kelgan.

Tana harakati ham insonlar bilan muloqotga kirishishning bir usuli ekanligini ko'pchilik e'tirof etadi. Atrofimizda doimiy ravishda tana "til"idan foydalanadiganlar uchrab turadi. Misol tariqasida qator kitoblar muallifi, samarali boshqaruv va noverbal aloqa kurslari o'qituvchisi Kerol Kinsi Goman nomini tilga olish mumkin. quyida uning faoliyatingizda sizga ham asqotadigan bir necha maslahati keltirilgan.

To'g'ri o'tirish. Kerolning aytishicha, tik qaddi-qomad qarshingizdagi inson idrokiga ta'sir o'tkazib qolmay, o'zingizga ishonchingizni ham ko'rsatadi. Ogayo shtati Universiteti taqdiqotlariga ko'ra, o'zingizni dadil tutishingiz atrofda odamlarda ijobiy taassurot qoldiradi. Asosiysi, bunday gavda tuzilishida o'zingizga ishonchingiz mustahkamlanadi. Ijtimoiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, qaddi-qomatini tik tutuvchi hamkorlar kasbiy mahoratiga bukchaygan hamkasblariga qaraganda ko'proq ishonadi. Buyningizning yelkangizni qisib yurmaslingiz

haqidagi buyruqlari behuda emas. O'qituvchilar esa doimo o'quvchilarni umurtqasi to'g'riligiga ko'ra safga turg'izadilar.

Muhim suhbat davomida yaxna ichimlikni tanlang. Ha, haqiqatda bug'alati eshitalishi mumkin, biroq qo'lingizdagi ichimlik temperaturasi suhbatdoshingiz kayfiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Yelsk universiteti olimlari issiq ichimlik qadahini qo'lida ushlab turgan odamlar qarshisidagi hamkori qanaqa odam, unga ishonsa bo'ladimi yo yo'q kabi savollar iskanjasida bo'lishini tajribada isbotlab berishgan. Yumshoq xatti-harakatlar va haddan ortiq saxiylik ba'zan jiddiy uchrashuvga xalaqit berishi mumkin. Ish yuzasidan bo'ladigan muzokaralarda Kerol qo'lingizda sovuq suv yoki muz solingan kofe idishini ushlab turishni tavsiya etadi. Bundan shunday xulosa yasash mumkin: agar xo'jayningizga xushomad qilmoqchi bo'lsangiz, unga issiq ichimlik taklif qiling. Ammo, ehtiyot bo'ling, achchig'ini berib yubormang tag'in.

Boshlar muloqoti (Muloqot maromiga mos bosh irg'itish). Buni mutaxassislar takt (biror nasraning ritmi)ga mos harakatlar deb atashadi. Albatta, siz suhbatdoshingiz harakatlari uchun oynasiz. Uning gapini bosh irg'itish orqali ma'qullab turish, muloqotni ijobiy tomonga o'zgartiradi. Stenford universiteti olimlari bu mavzuni chuqur o'rgangan va uni butun jamoa orasida yoyishadi. Ularning tasdiqlashicha, jamoa a'zolarining bir paytdagi harakatlari vazifalarni muhokama qilayotganda miyaga kuchli ta'sir o'tkazadi, ijodiy yechimlarni o'ylab topishga ko'mak beradi. Tadqiqotchilarning aytishicha, bir-birini bosh irg'atib tasdiqlash, ma'qullash hamkorlikning kuchayishiga, yangi g'oyalarni ishlab chiqishga olib keladi.

Qo'llar muloqoti. Uchrashuv boshlanguncha hamsuhbatingizning qo'lini siqib qo'yish payida bo'ling. Samimiy qo'l siqiqish uzoq muddatli yaqin aloqalarning o'rnatilishiga sabab bo'ladi. Garvard biznes maktabining tavsiyasiga muvofiq muzokara vaqtigacha rahbarlarning qo'l berib ko'rishib olishi yakunda adolatli bitimga erishuv kafolatidir. Bu darrov ishga o'tiladigan muloqotdan ko'ra foydaliroq. qo'l siqishib qo'yishdan keyin tomonlarning yolg'on ishlatishga moyilligi kamroq kuzatiladi.

Unutmang, ishbilarmonlar past ovoz tufayli ko'p pul ishlab topishgan! Dyuka universiteti olimlari amerikalik 800 rahbarning maoshini aniqlash orqali qiziq qonunni kashf etishdi: 22 Gs dagi past ovoz chastotasi 187 ming dollardek yirik mablag' ishlab topishga sabab bo'lgan. Haqiqatda, past ovozli insonlar so'zi kishilarga tezroq yetib boradi va ta'sir ko'rsatadi. Xullas, xulosa: sizning ovozingiz boshqalarga qanday eshitalishini aniqlab oling, muhim uchrashuvlar oldidan ovozni pasaytirish chorasini ko'ring.

Kayfiyatni oldindan muzokoraga moslab olamiz. Agar siz teatr to‘garagida ishtirok etgan bo‘lsangiz, sahnada obrazga kirishib, rolda namoyon bo‘lish kerakligini yaxshi bilasiz. Sahnada ko‘rinishlari ham ish jarayonidagi muzokoralarga o‘xshab ketadi. Nega deysizmi? Glazgo universiteti olimlarining fikricha, insonning emotsional holatini baholab chiqish uchun miyaga atigi 5 soniya kifoya qiladi. Agar omma yoki hamkorlar bilan uchrashuvga oldindan hozirlik ko‘rmagan bo‘lsangiz, bunday kichik vaqt birligi ichida qo‘rquvingizni yo‘qotishni eplay olmaysiz. Zarur emotsional holatga kirib olish uchun oldindan tayyorlanish kerak, hech bo‘lmasa umumiy hojatxonada buni amalga oshirish mumkin.

Yelkaga qoqib qo‘yishdan qo‘rqmang! Ko‘psonli ekspertlar mulohazasiga ko‘ra savdo-sotiq munosabatlarida oriyentatsiyalanganlik — menejerning qo‘lini xaridor qo‘liga tegizishi, do‘konda sotuvchining ham shunday munosabatda bo‘lishi ikki tomonning ham xariddan qoniqish hosil qilishiga olib keladi. Bunday xususiyat restoran biznesi uchun ham xos. Kornel universiteti olimlari aniqlashicha, yelkasiga nazokat bilan qoqib qo‘yilganini sezgan mijoz ko‘proq choychaqa qoldirgan. Bu qoida boshqa sohalarda ham keng tarqalgan. Asosiysi — harakatlardagi nazokat, ortiqcha qaysarlik va betakalluflikdan qochishdir.

